



2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

# YANGI

# O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 154 (943), 2023-yil 4-avgust, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



## O'ZBEKISTON PREZIDENTI AMALIY TASHRIF BILAN TURKMANISTONDA BO'LADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston tomonining taklifiga binoan 4-avgust kuni amaliy tashrif bilan Ashxobod shahrida bo'ladi.

Tashrif dasturiga muvofiq, oliy darajada uchrashuvlar o'tkazish hamda O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston Prezidentlarining uch tomonlama sammitida

ishtirok etish rejalashtirilgan. Tadbirlar davomida mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalar ko'rib chiqiladi.

O'za

## BIZ VA DUNYO

## O'zbekiston - Tojikiston - Turkmaniston: STRATEGIK SHERIKLAR VA ISHONCHLI QO'SHNILAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston yetakchilarining 4-avgust kuni Ashxobodda bo'lib o'tadigan uch tomonlama uchrashuvida ishtirok etadi.

Bunday formatdagi birinchi uchrashuv strategik sheriklik munosabatlarini va o'zaro ishonchni yanada mustahkamlash, uch mamlakat va, umuman, mintaqada oldida turgan dolzarb masalalarga o'zaro maqbul yechimni qidirib topish bo'yicha konstruktiv muloqotni davom ettirishga qaratilgan.

Bu do'stlik va yaxshi qo'shnichilik, uch davlat xalqlarining umumiy tarixi, an'analari va madaniyati mushtarakligiga asoslangan har tomonlama aloqalarni yanada mustahkamlash va chuqurlashtirishga intilishlarning amaliy timsoliga aylanishi kutilmoqda.

O'zbekiston, Turkmaniston va Tojikiston nafaqat jug'rofiy va geosiyosiy omillar, balki ekologik va iqtisodiy xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash bilan bog'liq umumiy xavf-xatar jihatidan ham o'zaro chambarchas bog'langan.

Qo'shnilar bilan munosabatlarni yaxshilash va chuqurlashtirish mamlakatimiz tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishidir. O'zbekiston Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni har tomonlama mustah-

kamlash bo'yicha misli ko'rilmagan qadamlar tashlamog'da.

Shu bois, Markaziy Osiyoda siyosiy iqlim sezilarli darajada yaxshilandi, tom ma'nodagi yaxshi qo'shnichilik va o'zaro ishonch ruhi shakllana boshladi. Mintaqaviy integratsiya va hamkorlik jarayoni yangi bosqichga kirdi.

Xususan, O'zbekistonning Tojikiston va Qirg'iziston bilan davlatlararo chegaralari bo'yicha tarixiy kelishuvlarga erishildi, mamlakatlar va shaharlar o'rtasida transport aloqalari tiklandi, turli darajadagi o'zaro tashriflar almashuvi faollashdi. Bundan tashqari, suvdan foydalanish, chegarani kesib o'tish, mintaqaviy darajada transport kommunikatsiyalaridan foydalanish singari murakkab masalalarga yechim topildi.

Bu qo'shni davlatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatdi. 2022-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonning mintaqaviy tashqi savdo aylanmasi hajmi 2016-yildagiga nisbatan 3 barobar oshgani holda 7,5 milliard AQSH dollarini tashkil etdi.

Davomi 2-betda

## IQTIDORLI YOSHLAR — MAMLAKAT KELAJAGI

## DUNYO O'ZBEKISTONNI YANGIDAN TANIYAPTI

o'g'il-qizlarimiz xalqaro fan olimpiadalarida ham peshqadam



Intellektual salohiyati baland yoshlar mamlakat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchdir. Shu bois, bugun yurtimizda iqtidorli yoshlarga islohotlarning faol ishtirokchisi, innovatsion g'oyalarning dadil tashabbuskori, millatimizning "oltin fondi" sifatida qaralmoqda. Imkoniyatlardan to'g'ri foydalanayotgan yigit-qizlar esa o'zini ilm-fanda yetakchi kuch sifatida namoyon eta olyapti. Bu ularga qaratilgan e'tibor va yaratilgan shart-sharoit bilan bevosita bog'liq.

Davomi 5-betda

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

## JAMIYATIMIZNING YANGI QIYOFASI

## SIYOSIY AXLOQ VA AXLOQIY SIYOSAT

YOKI PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING FARG'ONA VILOYATIGA SAFARIDAN KEYINGI MULOHAZALAR

Yangi O'zbekiston butunlay yangi imkoniyatlarini namoyon etmoqda. Davlat ijtimoiy hayot tomirlariga kirib bormoqda. Ijtimoiy davlat tushunchasi real voqelikka aylanmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 1-moddasiyiq yangi O'zbekiston davlatining butun ko'lamini, mazmunini, mohiyatini o'zida ifoda etadi. Darhaqiqat, O'zbekiston — mustaqil, suveren, huquqiy, demokratik, ijtimoiy davlat.

Davomi 3-betda



## TARAQQIYOT MEZONLARI

## SANOATLASHAYOTGAN MEVA-SABZAVOTCHILIK

ham oziq-ovqat xavfsizligi, ham iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda



Jahon tajribasi qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish hamda eksport salohiyatini oshirish — iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biri ekanini yaqqol ko'rsatmoqda. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar sohani tubdan isloh qilish, unga ilg'or va zamonaviy

texnologiyalarni joriy etish, pirovardida, barcha yo'nalishlarda yuqori samaradorlikka erishishda muhim omil bo'ldi. Buni birgina meva-sabzavotchilik tarmog'ida qo'lga kiritilayotgan natijalar misolida ham ko'rish mumkin.

Davomi 4-betda

## INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSİYASINING 75 YILLIGIGA

## USHLAB TURISH JARAYONIDA INSON HUQUQLARI KAFOLATLANADI

Har bir inson yashash, erkin bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga ega. Bu tamoyillar milliy qonunchiligimizda ham, xalqaro me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ham o'z aksini topgan. Xususan, adolati dunyoning huquqiy asosi hisoblanuvchi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida har bir insonning asosiy huquqlari bo'lgan bu qoidalar mustahkamlab qo'yilgan.

Davomi 2-betda

## DOLZARB MAVZU

## HAR BIR DARAXT BEBAHO NE'MAT

Uni asrash va ko'paytirish hayot tarzimizga aylanishi shart!

O'simliklar dunyosi hayot uchun zarur kislorodning asosiy manbaidir. Tadqiqotlarga qaraganda, 1 gektar maydondagi daraxtzor bir kecha-kunduzda 220-275 kilogrammgacha karbonat angidrid gazini yutib, 180-215 kilogramm kislorod ajratadi. Bu miqdor o'rtacha 500 kishini kun davomida kislorod bilan ta'minlashga yetadi. Boshqacha aytganda, to'rtta daraxt bir kishining kislorodga ehtiyojini qondiradi. Shu bois, yashillikni asrash va ko'paytirish masalasi doimo dolzarb.

Davomi 2-betda

## INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASINING 75 YILLIGIGA

# USHLAB TURISH JARAYONIDA INSON HUQUQLARI KAFOLATLANADI

Boshlanishi 1-betda

Mazkur deklaratsiya qabul qilingana bu yil 75 yil to'ldi. Mamlakatimizda ham ushbu sana keng nishonlanmoqda. Deklaratsiyada o'z aksini topgan ezgu tamoyillar yurtimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlar, "Inson qadri uchun" degan ezgu maqsadlar bilan hamohangdir.

Inson qadri haqida gap borar ekan, avvalo, uning haq-huquqlarini himoyalash, hayotdagi har qanday holat va vaziyatlarda erkinlikni va daxlsizligini ta'minlash masalasi ustuvorlik kasb etadi. Zero, hayot bir tekis emas. Ba'zida inson adashadi, xatoga yo'l qo'yadi, bilib-bilmay jinoyat ko'chasiga kirib qolishi mumkin. Shunday vaziyatlarda, tabiiyki, huquqiy choralar ko'rishga to'g'ri keladi. Ammo bu jarayonda ham insonning qadr-qimmatini joyga qo'yish, qonunchilikda belgilangan yashash, erkin bo'lish va daxlsizlik huquqlariga rioya etish ustuvor vazifadir. Ayniqsa, jinoyat-protsessual ushlab turish jarayonida bu qoidalarga amal qilish dolzarb ahamiyatga ega.

Protsessual majburiy choralarini bevosita insonning huquq va erkinliklariga daxl qiluvchi ushlab turish, ehtiyot choralarini, pasportning amal qilinishini to'xtatib turish, lavozimdan chetlashtirish, majburiy keltirish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish kabi choralarini qo'llash bilan bog'liq bo'lib, ular jinoyatni muvaffaqiyatli ochildirish va aybdorlarning javobgarlikka tortilishini ta'minlash uchun zarur. Ushbu majburiy choralarini ichida ushlab turish tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergov davrida gumon qilinayotgan shaxsning asosiy huquq va erkinliklariga eng ko'p darajada daxl qilinishi bois, ularni qo'llashda huquqni muhofaza qiluvchi organlardan ishni qonuniy, har tomonlama sinchkov hamda xolis-ona ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi asosida qabul qilingan Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda har bir inson erkinlik va shaxsiy daxlsizlik

huquqiga egaligi, hech kim o'z boshimchalik bilan hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi, qonunda belgilangan boshqacha asos va tartibda ozodlikdan mahrum etilishi mumkin emasligi aytilgan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ham inson huquq va erkinliklarini ta'minlash sohasida ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining deyarli barcha prinsipial qoidalari o'z aksini topdi. Ayniqsa, fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari alohida tartibda belgilanishi jamiyat huquqiy tizimi yetukligining ifodasi sifatida namoyon bo'ldi. Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda har kimning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi mustahkamlangan bo'lib, hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emasligi belgilandi.

Shaxsiy erkinlik va daxlsizlik to'g'risidagi bu konstitutsiyaviy me'yorlar jinoyat-protsessual qonunchiligida ham o'z aksini topgan. Masalan, hech kim sud qaroriga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas, deb belgilangan. Shuningdek, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda hibsga olingan har bir kishiga hibsga olish chog'ida uning hibsga olinishi sabablari aytilishi va unga qo'yilgan har qanday ayblov darhol ma'lum qilinishi belgilangan bo'lib, shaxsni ushlab turish vaqtdagi uning huquqlari to'g'risidagi ushbu me'yorlar jinoyat-protsessual kodeksida o'z aksini topgan. Unga ko'ra, ichki ishlar organi xodimi, boshqa vakolatli shaxs ushlab turishning Jinoyat-protsessual kodeksida ko'rsatilgan asoslaridan bittasi mavjudligi bevosita aniqlasa yoki boshqa guvohlarining so'zlaridan aniqlagan taqdirda:

**birinchidan**, o'zini tanishtirishi va ushlab turilgan shaxsning talabiga ko'ra, o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatishi;

**ikkinchidan**, gumonlanuvchiga jinoyat sodir etishda gumonlanib ushlanganini ma'lum qilishi;

**uchinchidan**, ushlab turilgan shaxsga advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon qilish yoki xabar berish, himoyachiga ega bo'lish, ko'rsatuvlar berishni rad etishga bo'lgan protsessual huquqlarini tushuntirishi;

**to'rtinchidan**, ushlab turilgan shaxsga u bergan ko'rsatuvlardan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o'ziga qarshi foydalanilishi mumkinligini bildirishi;

**beshinchidan**, ushlab turilgan shaxsdan yaqin oradagi ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga birga borishini talab qilishi shart.

Yuqoridagi huquqlarning tushuntirishi xalqaro jinoyat protsessual huquqida "Miranda qoidasi" deb nomlanib, u shaxs gumon qilinuvchi sifatida ushlanayotgan vaqtda huquqlari sodda tilda tushuntirilishini bildiradi. Muhimi, endi bu tamoyil yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ham o'z aksini topdi. Konstitutsiyaga ko'ra, shaxsni ushlab turishda unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslarini tushuntirishi shart.

Bundan tashqari, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga jinoyat ta'qibga uchragan fuqaroning adolatlari sud muhokamasiga bo'lgan huquqi tarixan eng qadimiy e'tiroflaridan biri hisoblangan "Xabeas korpus" tamoyili ham kiritilgani mamlakatimizda insonning ushbu huquqlariga katta e'tibor berilayotganidan dalolatdir. Konstitutsiyada hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko'ra, yo'l qo'yilishi, shaxs sudning qarorisiz qirg sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi mustahkamlab qo'yildi.

Shaxs erkinligini ta'minlashning kafolatlaridan yana biri qonunga xilof ravishda ushlab turish yoki hibsga olish uchun jinoyat javobgarlikning belgilanganidir. Shuningdek, huquqiy asossiz, ya'ni bila turib, qonunga xilof ravishda hibsga olish yoki hibsga saqlash uchun ham jinoyat jazo belgilangan.

Shu bilan birga, Jinoyat-protsessual kodeksida qonuniy ushlab turishning maqsadi belgilangan bo'lib, unga ko'ra, ushlab turish jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni uning jinoyat faoliyat bilan shug'ullanishiga barham berish, qochib ketishi, dalillarni yashirishi yoki yo'q qilib yuborishning oldini olish maqsadida qisqa muddatga ozodlikdan mahrum qilishdan iboratdir.

Ushlab turish jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar ham, ish qo'zg'atilgandan keyin ham faqat jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsga nisbatan amalga oshiriladi. Bu esa jinoyat-protsessual ushlab turishning asosiy maqsadi va uning mohiyati erkinlikni cheklashning vaqtinchaligidir. Erkinlikni qisqa vaqtga cheklash ushlangan shaxsning jinoyatga haqiqatan ham aloqadorligi yoki yo'qligini aniqlab olish uchun amalga oshiriladi.

Ushlab turish asoslarining qat'iy tartibda belgilab qo'yilishi hozirgi zamon qonunchiligida ustuvor bo'lib, shaxsning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarining yana bir kafolatidir. Shuning uchun jinoyat-protsessual qonunchiligining asosiy vazifalaridan biri jinoyatni tezlik bilan va to'la ochish hamda aybdorlarni aniqlash hisoblanadi. Ushbu vazifa hech qachon shaxs huquqlari va daxlsizligi buzilishiga olib kelmasligi kerak.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va adolatlil fuqarolik jamiyatini qurish ko'p jihatdan mamlakatda fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga bog'liq. Bu esa, o'z navbatida, mamlakat qonunchiligini qay darajada mustahkamligini ko'rsatadi.

Ushlab turish asoslarining qonunda aniq belgilanishi yagona maqsadni, ya'ni shaxs noqonuniy ravishda ushlanishining oldini olishni ko'zlaydi. Inson erkinligi va shaxsiy daxlsizligi buzilishi esa har bir shaxsning sudga shikoyat bilan murojaat qilish hamda buzilgan huquqlarini tiklash va uning talablarini qondirish huquqini keltirib chiqaradi. Albatta, bu huquqiy me'yorlar, avvalo, inson huquqini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish, jamiyatda barqarorlikni ta'minlashga zamin bo'ladi.

**Abduqodir ABDIBOSITOV,**  
**Ichki ishlar vazirligi**  
**Malaka oshirish instituti**  
**o'qituvchisi**

## BIZ VA DUNYO

# O'zbekiston – Tojikiston – Turkmaniston: STRATEGIK SHERIKLAR VA ISHONCHLI QO'SHNILAR

Boshlanishi 1-betda

O'zbekiston tashabbusi bilan 2018-yil mart oyida ko'p tomonlama yangi mexanizm — Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlari o'tkazilishi yo'lga qo'yildi. Bu format samaradorligini isbotladi. 2022-yil 21-iyul kuni Qirg'izistonning Cho'iponota shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining to'rtinchi maslahat uchrashuvi doirasida uch davlat tomonidan XXI asrda Markaziy Osiyoni rivojlantirish maqsadidagi do'stlik, yaxshi qo'shnihilik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma imzolandi.

Mamlakatlarimiz BMT, MDH, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida samarali hamkorlikni rivojlantirmoqda hamda bir-birlarini qo'llab-quvvatlayotir.

Uch davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni izchil rivojlantirish va chuqurlashtirish bu mamlakatlar xalqlarining asosiy manfaatlariga javob berishi barobarida mintaqada tinchlik, barqarorlik, xavfsizlik va izchil rivojlanishni mustahkamlashga ko'maklashadi.

Bugungi kunda siyosiy, savdo-iqtisodiy, suv-energetika, ekologik va tomonlarni qiziqtirgan boshqa sohalaridagi dolzarb vazifalarni hal etish o'zaro hamkorlik kun tartibida turibdi. Uch mamlakatning transport, logistika va tranzit sohasidagi ulkan salohiyati inobatga olingan holda transport kommunikatsiyasi sohasidagi hamkorlikni

rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Mavjud salohiyatdan samarali foydalanish maqsadida O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston dengiz portlariga, jumladan, Kaspiy dengizi va Fors ko'rfaziga chiqishni ta'minlash uchun hamda Xitoy yo'nalishida uch mamlakat hududidan o'tadigan yo'llarni faollashtirishdan manfaatdordir.

Bundan tashqari, har uch davlat ham Afg'oniston bilan chegaradagi hamkorlikni davom ettirish Markaziy Osiyo davlatlarining butun mintaqaning barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, Afg'onistonga Markaziy Osiyo mintaqasining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek, "Afg'onistonda uzoq muddatli tinchlikni ta'minlash va uning jittimoiy-iqtisodiy tiklanishi bo'yicha yaqin hamkorlikni davom ettirish Markaziy Osiyo davlatlarining eng muhim ustuvor vazifasi bo'lib qolmoqchi lozim".

Shubha yo'qki, Markaziy Osiyodagi uch mamlakat yetakchilarining Ashxobodda bo'lib o'tajak uchrashuvi dunyodagi noaniqliklar oqibatida yuzaga kelayotgan iqtisodiy xavf-xatarlarni bartaraf etish, mintaqaning savdo-iqtisodiy, transport va logistika salohiyatini boyitish hamda birodarlik va yaxshi qo'shnihilik rishtalarini yanada mustahkamlash bo'yicha aniq rejalarini shakllantirishga zamin yaratadi.

"Dunyo" AA

## DOLZARB MAVZU



**Islom XUSHVAQTOV,**  
**Oliy Majlis Qonunchilik**  
**palatasi deputati**

Boshlanishi 1-betda

Mamlakatimizda mazkur yo'nalishda ham muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda yashil maydonlarni kengaytirish, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish barobarida ekologik huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilayapti.

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlarini buzilishlari profilaktikasi, ularni aniqlash va oldini olishning samarali mexanizmlarini joriy etish, aholi punktlarining sanitariya va ekologik holati uchun davlat organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbarlari va fuqarolarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish maqsadida 2030-yilgacha bo'lgan davrda Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi qabul qilindi. Konsepsiya doirasida tizimli ravishda tegishli "yo'l xarita"lari va davlat dasturlari amalga oshirilmoqda.

Keyingi yillarda aholi punktlarini ko'kalamzorlashtirish, daraxt va butalarni muhofaza qilish hamda yashil maydonlarni kengaytirish borasida tizimli choralar ko'rilmog'uda. Xususan, qimmatbaho navli daraxt va butalar kesilishiga moratoriy joriy qilinib, mamlakat miqyosida daraxtzorlarni ko'paytirishga qaratilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi amalga oshirilmoqda.

# HAR BIR DARAXT BEBAHO NE'MAT

## Uni asrash va ko'paytirish hayot tarzimizga aylanishi shart!

Daraxt kesish bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali amalga oshirish uchun "Ekologik patrul" tizimi yo'lga qo'yildi. Bu borada Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiya vakolatlari kengaytirilmoqda. Shuningdek, daraxt va butalarni qonunga xilof ravishda kesish uchun belgilangan javobgarlikni yanada kuchaytirish hamda noqonuniy kesilgan daraxt o'rniga kompensatsiyaviy daraxt ekish masalalarini qonun darajasida tartibga solish va kompensatsiyaviy ko'chatlarni noqonuniy kesilgan joyga ekish majburiyatini belgilash choralarini ko'rilmog'uda.

Ushbu yo'nalishdagi huquqbuzarliklar profilaktikasida siyosiy partiyalar, no-davlat notijorat tashkilotlar faolligi yaqqol ko'rina boshladi. Xususan, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar jarayonida ekologik



qarshi parlament va jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirib kelmoqda.

Ekologik huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy vazifasi jamiyatda ekologik ong va huquqiy madaniyatni

keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

Biroq ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi chora-tadbirlarning aniq manziliga yo'naltirilmagani va ularga kompleks yondashilmayotgani, shuningdek, huquqbuzarliklarning tizimli ravishda sodir etilishiga doir sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish samaradorligi mavjud emasligi kutilayotgan natijalarni bermayapti. Jamiyatda o'simlik va hayvonot dunyosidan foydalanish sohasida, yer, suv va atmosfera havosining ifloslanishi borasida ekologik huquqbuzarliklar sodir etilmoqda, ular soni oshib borishi esa ekologik barqarorlikka putur yetkazmoqda.

Vakolatli organlarning yetarli darajada tashabbus ko'rsatmagani, idoralararo hamkorlik lozim darajada yo'lga qo'yilmagani, ko'rilgan chora-tadbirlarning o'zaro nomutanosibligi ekologik huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirishni talab etdi.

Daraxt va butalarning qimmatbaho navlari kesilishiga qarshi joriy etilgan moratoriy institutini maqbul darajada ishlayapti, deya olmaymiz. Xususan, bunday huquqbuzarlik 2020-yilda 3960 ta, 2021-yilda 4703 ta, 2022-yilda 4673 tani tashkil etgan. Bu holat amaldagi jarimalar

yetarli darajada tiyib turish ta'siriga ega emasligini ko'rsatmoqda.

Shu sababli so'nggi vaqtlarda daraxt muhofaza qilishini kesilishi bilan bog'liq holatlar keng jamoatchilik hamda ommaiy axborot vositalari e'tirozlarini keltirib chiqarmoqda. Jumladan, 2022-yil davomida elektron ommaiy axborot vositalarida davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar kesilishiga doir 50 dan ortiq material e'lon qilingan. Jumladan, shu kunlarda qurilishi rejalashtirilgan xalqaro avtomobil yo'lini rekonstruksiya qilish loyihasi doirasida Surxondaryo viloyati hududida 21,8 ming, Buxoro viloyatida esa 28,9 ming, jami 50 mingdan oshiq daraxt kesilishi ko'zda tutilgani e'tirozlarga sabab bo'ldi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi vakillari va partiyaning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda mahalliy kengashlardagi deputatlari, ekspert va mutaxassislar hamkorligida joriy yil 29-iyul kuni Surxondaryo va Buxoro viloyatlarida o'rganish ishlari olib borildi. Tashkil etilgan maxsus ishchi guruh tomonidan kesilishga tushgan barcha daraxt va butalar inventarizatsiyadan o'tkazildi va ularni saqlab qolish bo'yicha tavsiyalar berildi. Bugungi kunda yo'l qurilishi loyihasiga ushbu takliflarni inobatga olgan holda o'zgartishlar kiritishga erishildi.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi ijrosi yuzasidan olib borilgan parlament nazorati natijalarida respublika bo'yicha 2022-yilda jami 4,5 million tup ko'chat sug'orish tizimini hisobga olmasdan ekilgan, 2022-yil bahor mavsumida ekilgan 79,7 million tup ko'chatdan 2,7 million tupi suvsizlikdan, 1,9 million tupi qumli, toshli yerlarga, mavsumdan kechiqib yoki kasallangan holatda ekilishi oqibatida qurigan aniqlangan.

Ekologik huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda bu bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirishning ta'sirchan tizimini yaratish, qonun buzilishlarining oldini olish va ularni bartaraf qilishning zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish maqsadida quyidagilar tavsiya etiladi:

— fuqarolarning ekologik va tabiiy

**“O'ZBEKISTON EKOLOGIK PARTIYASI VAKILLARI VA PARTIYANING OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASI HAMDA MAHALLIY KENGASHLARDAGI DEPUTATLARI, EKSPERT VA MUTAXASSISLAR HAMKORLIGIDA JORIY YIL 29-IYUL KUNI SURXONDARYO VA BUXORO VILOYATLARIDA O'RGANISH ISHLARI OLIB BORILDI. TASHKIL ETILGAN MAXSUS ISHCHI GURUH TOMONIDAN KESILISHGA TUSHGAN BARCHA DARAXT VA BUTALAR INVENTARIZATSIYADAN O'TKAZILDI VA ULARNI SAQLAB QOLISH BO'YICHA TAVSIYALAR BERILDI. BUGUNGI KUNDA YO'L QURILISHI LOYIHASIGA USHBU TAKLIFLARNI INOBATGA OLGAN HOLDA O'ZGARTISHLAR KIRITISHGA ERISHILDI.**

yo'naltirilgan yondashuv barqaror rivojlanishda muhim omil bo'lishini anglagan O'zbekiston Ekologik partiyasi daraxt kesish bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasida muhim ishtirokchi sifatida faollik ko'rsatmoqda. Partiya va uning parlament quyi palatasidagi fraksiyasi jamiyatda ekologik huquqbuzarliklarga

yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlash, huquqbuzarliklar sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o'rganish va bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rishdan iborat. Mamlakatda ushbu jarayonni tashkil etish ko'lamidan kelib chiqqan holda, mazkur vazifalarni yanada kengaytirish borasida

## JAMIYATIMIZNING YANGI QIYOFASI

## SIYOSIY AXLOQ VA AXLOQIY SIYOSAT

## YOKI PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING FARG'ONA VILOYATIGA SAFARIDAN KEYINGI MULOHAZALAR



Oqil SALIMOV, akademik

Boshlanishi 1-betda

Ijtimoiy davlat tushunchasi uni tashkil etgan har bir fuqaro taqdirini, buguni va istiqbolini, har bir oila muhitini, uning qadriyatini jihatlarini o'zida mujassam etadi. Ijtimoiy davlat tushunchasi inson — ijtimoiy hodisa tamoyiliga asoslanadi. Zotan, har bir inson alohida va betakror olam, o'z maqsadi, orzusi, hayotiy aqidasi, qarashlari orqali bir-biriga bog'liq va odamlar o'zaro hamjihatligini taqozo etadigan ijtimoiy hodisa. Davlat ana shu mohiyatni o'zida ifoda etsa, u chinakamiga xalqchil, xalq uchun yashaydigan, xalqning orzu-maqsadlarini o'zida ifoda etgan qudratli vositaga aylanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning davlat rahbari sifatidagi fenomenal jihatlari yuqoridagi xulosalar bilan bog'liq. Darhaqiqat, davlatimiz rahbari o'zining o'ta xalqchilligi, samimiyatini, insonparvarligi orqali ijtimoiy davlat fenomeniga aylandi. Kim bo'lishidan qat'i nazar, har qanday fuqaro bilan didan suhbatlasha oladi, o'zining buyuk maqsadlarini oddiy odamlar tushunishi va istiqbol bilan bog'liq fikrlarini orqali tushunadiki, bu jamiyatda sog'lom ma'naviy-ruhiy vaziyatni vujudga keltiradi. Natijada umummilliy sog'lom kayfiyat vujudga keladi.

Aslini olganda davlat tushunchasi boshqaruv, ta'sir o'tkazish, tashkil etish, kuch ishlatish mohiyatiga ega. Biroq davlat rahbarining fe'l-atvori, uning insoniy olami, ma'naviy va axloqiy dunyosi davlat qiyofasini belgilaydi. Har bir davlatga uning rahbari orqali baho beriladi. Ayni u orqali davlat jonli organizmga, qadriyatini jihatlariga ega bo'ladi. Ana shu jihatdan qaraganda,



yangi O'zbekiston davlati Prezident Shavkat Mirziyoyev timsolida g'oyat samimiy, adolatli, mehr-muruvvatli, ayni paytda o'ta qat'iyatli, har bir so'z, xatti-harakat va faoliyat uchun aniq javobgarlik tuyg'usi namoyon bo'ladi. Bu hammamizning, har birimizning yutug'imiz.

Ochiqlik, oshkorlik, faoliyatga tanqidiy yondashuv, kamchilik va nuqsonlarga dadillik bilan munosabat bildirish, ularni bartaraf etish chora-tadbirlari ko'rilishi davlat rahbarining zukkoligi, hozirjavobligi va qat'iyatligidan dalolat beradi.

Uzoq yillik tajribamdan kelib chiqib aytishim mumkin, jamiyatda mavjud kamchilik va nuqsonlarni oshkorlik bilan ochib tashlash va uni bartaraf etish choralarini ko'rish davlat rahbaridan alohida qobiliyatni, jur'at va qat'iyatni talab qiladi.

Masalning ikkinchi tomoni ham bor. Keng miqyosli islohotlar amalga oshirilayotgan bir paytda qilingan ishlardan ko'ra, qilinmagan ishlarning

ko'lami keng bo'ladi. Ana shunday sharoitda, odamlar kayfiyatida ba'zan kutilmagan o'zgarishlar sodir bo'ladi. Kimlardir loqayd, befarq, tayyoriga ayyorlik illatlariga uchraydi. Yana kimlardir xudbinlik, manfaatparastlik, poraxo'riik kasaliga uchraydi. Ba'zilar axloqiy tanazzul, ma'naviy o'pirilishlar holatiga tushadi. Ayrim hollarda o'rta bo'g'in rahbarlari islohotlar shiddatiga javob bera olmaydi. Ularning ayrimlarida boshqaruv tajribasi, kasbiy mahorat yetishmasa, boshqalari "Xudo berdi, foydalanib qolay" qabilida mansab vakolatidan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanishga o'tib oladi. Yana bir xillari shunchaki vaqt o'tkazib, loqaydlik, befarqlik bilan vaqt o'tkazadi. Yaxshiyamki, asosiy ko'pchiligi islohotlar mohiyatini chuqur anglaydi. Uni qo'llab-quvvatlaydi. Bosh islohotchi atrofida birlashib, umumiy safarbarlik namunalari ko'rsatadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Farg'ona viloyatiga safari yangi O'zbekiston ijtimoiy davlatining o'ziga xos qudratini

**PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING HUQUQ ORGANLARI FAOLIYATIDAN NOROZILIGI, ULAR OLDIGA QO'YAYOTGAN DOLZARB TALABLARI ANA SHU IJTIMOIY MUAMMODAN KELIB CHIQMOQDA. BIR YIG'ILISHNING O'ZIDA 15 TA ICHKI ISHLAR BO'LIMI BOSHLAG'IL, 5 TA PROKURORNING VAZIFASIDAN OZOD ETILISHI SIYOSIY AXLOQ VA AXLOQIY SIYOSATNING YORQIN KO'RINISHIDIR.**

yana bir bor namoyon etdi. Davlatimiz rahbari viloyat bo'yab safarda qator sanoat va qishloq xo'jalik korxonalarida, fermer xo'jaliklarida bo'ldi. Amalg oshirilayotgan keng miqyosli islohotlar natijalari bilan tanishdi va istiqbol bilan bog'liq fikrlarini bayon etdi: "Oldimizda hali yetti yil bor, bu ishlarni ertaga yoki keyingi yildan boshlaymiz degan vazir yoki hokim qattiq adashadi. Chunki odamlarimiz saylovoldi dasturlarida ko'tarilgan har bir tashabbus bo'yicha aniq natijalarni bugundan kutaypti. Agar eng yuqoridan tortib mahallagacha ish uslubini o'zgartirsa, barcha darajadagi rahbarlar "Har bir yangi kun — yangi imkoniyat" deb ishlashga o'rganmasa, vaqtni boy beramiz", dedi.

Darhaqiqat, inson umri va davlat hayoti uchun vaqt har narsadan qimmat. O'tib



va sansolarlikka qat'iy barham berishni talab qildi.

Har qanday islohot ostida inson manfaati yotadi. Uning taqdiri farovon va saodatli hayoti, farzandlarining istiqbolli islohotlar samarasi bilan bog'liq. Prezident Shavkat Mirziyoyev siyosiy qarashlarida hamma narsa inson uchun, inson hamma narsadan ulug' tamoyili ustuvorlik qiladi. Jumladan, ana shu ezgu maqsaddan kelib chiqib, "Biz islohotlarimizning ilk kunlaridanoq inson qadriyatini ulug'lashni eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etdik. Yangilangan Konstitutsiyamizda ham O'zbekiston huquqiy va ijtimoiy davlat ekanligini muhrlab qo'ydik. Yagona maqsadimiz adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash orqali xalqimizni rozi qilish", deb alohida ta'kidladiki.

Qonun ustuvorligiga erishish, har bir fuqaro hayotining daxsizligi, tinchligi va barqarorligi ijtimoiy davlatning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Bu tamoyillarni amalga oshirish uchun keyingi 2 yilda huquq-tartibot faoliyatiga oid 10 ta qonun, Prezidentning 40 ga yaqin farmon va qarori, 60 dan ortiq hukumat qarori qabul qilindi. Huquq-tartibot organlari, ayniqsa, ichki ishlar hodimlarining oylik maoshi keskin oshirildi va ko'plab imtiyozlar berildi. Shunga qaramay, joriy yilning olti oyida turli qonunbuzarliklar va jinoyatchilikning oldini olishi mumkin bo'lgani holda 12 mingga yaqin jinoyat sodir etilgan. Mamlakatimizda mavjud 10 mingga yaqin mahallaning 1500 tasida kriminogen vaziyat mavjud. Bu jamiyat barqarorligiga, fuqarolar hayoti daxsizligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan xatarli holatlardir.

Kuzatishlarimdan kelib chiqib aytishim mumkin, jamiyatda qandaydir axloqiy va ma'naviy chekinishlar holati chuqurlashib bormoqda. Ayrim odamlar o'zini o'zi boshqarolmayapti. Ruhiy muvozanatini yo'qotgan holatda jinoyat sodir etmoqda. Bu sharqona turmush tarzi, o'zbekona axloqiy qadriyatlar g'oyat nochor ahvolga tushganini ko'rsatmaydimi?

Joriy yilning o'tgan olti oyi mobaynida 257 ta voyaga yetmagan qizni zo'rlash holatlari ro'yxatga olingan. Bu shikoyat qilganlarning va jinoiy ish qo'zg'atilganlarning o'ziga xos xolos. Shikoyat qilmagan yoki o'zining moyilligi bo'lgan holatda sodir bo'lgan bunday g'ayri axloqiy holatlar ko'lami qancha ekan? Biz qayoqqa boryapmiz?

Prezident Shavkat Mirziyoyev turli jinoyatchiliklarning asosini jamiyat axloqiy, ma'naviy va ruhiy holatida ko'radi. Kriminogen holatlar ildizini qidiradi. Davlat rahbarining axloqqa doir siyosati Prezident sifatidagi siyosiy axloq konsepsiyasini belgilaydi. Siyosiy axloq bevosita boshqaruv madaniyatini, rahbarlik odobi, millat va davlat sha'ni bilan, milliy oriyat va milliy nafsoniyat bilan bog'liq bo'lgan g'oyatda keng miqyosli hodisa darajasiga ko'tariladi. Darhaqiqat, qaysi jamiyatda rahbar odobi kuchli bo'lsa,

unda fayz, baraka yalpi jamiyatning umumiy kayfiyati sog'lom bo'ladi. Natijada siyosiy axloq axloqiy siyosatning tayanchiga aylanadi. Bu bevosita sharqona boshqaruv madaniyati, bir necha ming yillik davlatchilik tajribalarimizning zamonaviy sivilizatsiya sharoitidagi yangi ko'rinishi sifatida ko'zga tashlanadi.

Ana shu hayot haqiqatidan kelib chiqib, Shavkat Mirziyoyev keng miqyosli islohotlar jarayonida oila mustahkamligi, oila muhitining sog'lomligi, ota va onaning farzand tarbiyasi bilan bog'liq majburiyatlari muammolariga alohida e'tibor bilan qaraydi. Olti yil nizolar, ayollar jinoyatchiligi holatlariga alohida e'tibor beradi. Ijtimoiy-maishiy muammosi bor oilalar bilan alohida, doimiy va uzluksiz ishlash davlat idoralariining birinchi galdagi vazifasi bo'lib qolishini hamisha ta'kidlaydi. Darhaqiqat, oila — kichik davlat. Boshqacha qilib aytganda, oila — makrodavlat ichidagi mikro davlat. Har bir oilaning o'z tarbiyaviy muhiti, yashash qonuniyatlari, talab va ehtiyojlari bor. Bu qonuniyatlar, talab va ehtiyojlar, albatta, umummilliy va umumijtimoiy manfaatlar bilan uyg'un bo'lishi lozim. Ana shundagina butun jamiyat sog'lom va barkamol bo'ladi. Bu — oson ish emas. Chunki hamma oiladagi ma'naviy, axloqiy va ruhiy muhit bir xil emas. Uni muvofiqlashtirib turadigan, nazoratga oladigan holatlar ham mavjud. Shu maqsadda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Og'ir hayotiy ahvolga tushgan, kam ta'minlangan, xususan, tarbiyaviy va axloqiy jihatdan muammosi bor oilalar bilan alohida ishlash, ularga bilan shug'ullanish maqsadida "Ijtimoiy xizmat ishi" yo'lga qo'yiladigan bo'ldi. Kriminogen oilalar bilan alohida ishlaydigan, "Xavfsiz oila" tamoyili asosida faoliyat yuritadigan tizim yo'lga qo'yiladi.

Insoniyatning bir necha ming yillik taraqqiyoti shundan dalolat beradiki, har qanday sivilizatsiyaning asosi — ma'naviyat! Har qanday sivilizatsiyaning tanazzuli — axloqsizlik! Bu bevosita ming yilliklar mobaynida sinovdan o'tgan hodisa.

Prezident Shavkat Mirziyoyev viloyatlarda, shahar va qishloqlarda bo'lganida to'g'ridan-to'g'ri xonadonlarga kirib boradi. Serfarzand va serdavatli oila a'zolari bilan suhbat quradi. Ularning dasturxonini atrofta o'tirib, maqsad va muammolari bilan tanishadi. Albatta, mahalla, jamiyat va uning istiqbolli atrofida fikr almashadi, o'roqlashadi.

Esimda bor. Shavkat Mirziyoyev Prezident etib saylangan dastlabki yillarda Andijon viloyatidagi mahallalarning birida bo'lganida bolalarga e'tibor, ularni doimiy nazoratga olish, yoshlar tarbiyasi hammasining umummilliy ishimi ekanini alohida ta'kidlagan edi. Jumladan, "Bu bola meniki emas, qo'shnikki, Andijonnikki emas, Xorazmniki degan fikrga bormasligimiz, u bola O'zbekistonnikki ekanligini unutmashimiz lozim", degan edi.

Darhaqiqat, O'zbekiston bizning umumiy uyimiz. O'ttiz olti millionli ulkan

xonadonimiz. Unda yashayotgan har bir bola hammamizniki. Uning taqdiri, qanday odam va kim bo'lib voyaga yetishi bizga bog'liq. Ularning baxtli-saodatli hayoti, taqdiri uchun javobgarmiz. Bu — o'zbekona tarbiyaning o'zginasi. Bu — siyosiy axloq va axloqiy siyosatning musharak ko'rinishi. Qolaversa, bu azaldan ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib kelayotgan tarbiya tamoyillari. Zotan, ota-bobalarimiz ming yillar mobaynida bola kimligidan qat'i nazar, unga befarq bo'lmagan. Har bir bola alohida e'tiborda bo'lgan. Bola va uning ota-onasi fazilatlarini uchun rahmat eshitgan, illatlari uchun tanbeh berilgan. Tarbiyasi og'ir, yurish-turishi xavfli, e'tiqodi zaif yoshlar bilan



butun mahalla shug'ullangan. Bir oilada nojo'ya gap chiqsa, mahalla uchun isnod deb bilishgan.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan turli nojo'ya ma'lumotlar, axloqsiz roliklar o'smirlar va yoshlar ongiga jiddiy salbiy ta'sir etmoqda. Yengiltak turmush tarzini targ'ib qilmoqda. Bu zamonaviy sivilizatsiya sharoitida millatlar yo'q qilinishining oson va samarali usuli bo'lib qoldi. Milliy qadriyatlardan uzoqlashish jarayoni davom etmoqda. Bundan qattiq ta'sirlangan atqori rus shoiri Yevgeniy Yevtushenko bir paytlar reklamalar, behayo kliplar va san'atdagi tuturuqsiz holatlar haqida chuqur iztirob bilan gapirgan edi. Jumladan, "Tabiat zilzilalar, qo'rqinchil suv toshqinlari bilan bizga tahdid qiladi. Biroq bu qo'rquv va tahdidlar gazeta va jurnallar, televideniye orqali yopirilib kelayotgan majburiy reklamalar tahdidi oldida hech narsa emas. Har qanday reklama falsafasi yo'q odamning falsafasiga aylandi. Kliplar esa sayyoramizning bosh imijmeykeri maqomini egalladi. Bugun Maykl Jekson Shekspirdan ko'ra mashhur. Rossiya yoshlari orasida pop qo'shiqchi Chirkorovning mashhurlik darajasi Chaykovskiy, Tolstoy va Soljenitsinning qo'shib olingandagi mashhurlikidan ham oshib ketdi", degan edi. Bu iztirobning tagida juda katta milliy dard, milliy iztirob, ayni damda achchiq haqiqat yotadi. Chunki bugungi yoshlar yengiltak qo'shiqchilar va yengil fikrlaydigan

odamlar ortidan quvadigan va ularga taqild qiladigan bo'lib qolgan.

Tobora keng tarqalayotgan bema'ni qo'shiqlar, yarim yalang'och raqslar, o'g'rincha musiqalar, yengiltak, axloqsiz hayotni targ'ib qilish vositasiga aylandi. Bu, ayniqsa, aholisining 60 foizidan ko'prog'ini yoshlar va bolalar tashkil etadigan O'zbekistonday bolajon mamlakatda g'oyat xatarli, millat istiqboliga tahdid soluvchi hodisa emasmi? Ayni shu san'at niqobidagi turli erotik roliklar va fahsh bilan bog'liq jiddiy salbiy ta'sir etmoqda. Ular ongini osonlik bilan zaharlamog'la.

Aslini olganda terrorchilik, kamikadzelik holatlari haqida ko'p gapiramiz, bunga ehtiyoj ham bor. Zotan, bugungi dunyo ayni shu tajovuzkor hodisadan jabr ko'rmoqda. Buyuk qadriyatlar toptalmoqda. Insoniyat hayotiga misli ko'rimagan tahdid solmoqda. Biroq jismoniy harakat, fe'l-atvor va intilishlar bilan bog'liq bo'lgan, qandaydir manfaatlarini o'zida mujassam etgan bunday holatlarga qaqshatqich zarba berish mumkindir. Lekin butun millatni buyuk tarixidan, ulkan madaniy



merosidan ayirib, milliy an'analar, madaniyati va qadriyatlarini buzib yuborish orqali tanazzulga da'vat etishdek madaniy terrorning tahosi qancha? Uning o'ichovi, me'yori, ko'lami bormi? Bu jiddiy masala.

Yuqorida keltirilgan jisniy zo'ravonlik, voyaga yetmagan qizlarning homilador bo'lishi singari o'ta og'ir va sharmandali holatlardan tortib, ekstremizm, radikalizm ta'siriga berilayotganlarigacha, poraxo'riik, korruptsiyadan tortib, befarqlik, loqaydlik, "sen menga tegma, men senga tegmayman" qabilidagi tamoyillarigacha qator illatlarning borishi milliy inqirozga olib keladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning huquq organlari faoliyatidan noroziligi, ular oldiga qo'yayotgan dolzarb talablari ana shu ijtimoiy muammordan kelib chiqmoqda. Bir yig'ilishning o'zida 15 ta ichki ishlar bo'limi boshlig'i, 5 ta prokurorning vazifasidan ozod etilishi siyosiy axloq va axloqiy siyosatning yorqin ko'rinishidir.

Yangi O'zbekiston ijtimoiy davlati har bir fuqaro qadr-u qimmat bilan, sha'ni, uning baxtli, saodatli hayoti bilan bog'liq bo'lgan ma'naviy barkamol, g'oyaviy yetuk, siyosiy axloqning davlatiy siyosat bilan sintezlashib borayotgani uning davlat sifatidagi fenomenidir. Zotan, bizning, jamiyatimizning, davlatimizning yagona va birdan-bir xalokori axloq! Unga kuch, rag'bat, iroda va tashabbuskorlik tuyg'usini baxsh etadigan yagona va birdan-bir manba — ma'naviyat!

## TARAQQIYOT MEZONLARI

## SANOATLASHAYOTGAN MEVA-SABZAVOTCHILIK

ham oziq-ovqat xavfsizligi, ham iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda

Fuzeva JO'RAYEVA,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Jumladan, Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda yurtimizda 21,8 million tonna meva-sabzavot yetishtirilgan. Bu 2021-yilga nisbatan 3,8 foiz, 2017-yilga nisbatan esa 12,9 foizga ko'p, demakdir.

Yurtimizda yetishtirilgan meva-sabzavotlar ta'mi va vitaminlarga boyligi, quyosh nuri to'yinganligi bilan mashhur. Mahsulot yetishtirish hajmining o'rtib borishi esa oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan bir qatorda, eksport imkoniyatlarimizni ham oshirmoqda. Xususan, Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti tahlillariga ko'ra, 2023-yilning yanvar-aprel oylarida xorijiy mamlakatlarga umumiy qiymati 256,1 million dollarlik 359,2 ming tonna meva-sabzavot eksport qilingan. Bu 2022-yilning mos davriga nisbatan 6,5 foizga ko'p. Shu tariqa mamlakatimiz eksportining umumiy hajmida meva-sabzavotlar ulushi 3,3 foizni tashkil etgan.

Mamlakatimiz agrar tarmog'i, shu jumladan, meva-sabzavotchilikda bu kabi ijobiy tendensiyalarga erishilishida davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan klaster tizimi muhim omil bo'lmoqda.

## Birining yutug'i ikkinchisining manfaatiga xizmat qiladi

2021-yil 27-oktabr kuni Prezidentimiz raisligida qishloq xo'jaligida klaster tizimini rivojlantirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida bu tizim imkoniyatlari yuqori ekaniga alohida e'tibor qaratildi. Kelgusida qishloq xo'jaligida hosildorlikni kamida 2 barobar ko'paytirish, xomashyoni chuqur qayta ishlash orqali soha eksportini 7 milliard dollarga yetkazish, aholi bandligi va daromadini yanada oshirishda klasterlar faoliyati muhim o'rin tutishi ta'kidlandi.

Xo'jaliklar, korxonalar, muassasalarning xomashyo yetishtirish, undan tayyor mahsulot ishlab chiqarish va sotishgacha bo'lgan jarayonda bitta yaxlit jamoaga birlashishi tanrux pasayishiga, bu esa, o'z navbatida, daromad oshirishga imkon beradi. Shu bois, yurtimizda ushbu yaxlitlikni ta'minlaydigan yangi tizim yo'lga qo'yildi.

"Tomorqa xizmati" MCHJlar faoliyatining yo'lga qo'yilishi aholiga dehqonchilik ishlarini qayta tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Davlatimiz rahbarining 2020-yil 30-iyundagi "Aholi tomorqalaridan foydalanish samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan ko'plab mana shunday MCHJlar faoliyati yo'lga qo'yildi. "Tomorqa xizmati" klasterlari ham tashkil etilyapti. Ular tomorqada yetishtirilgan mahsulotlarni saqlash, do'konlarga yetkazib berish, meva-sabzavotlarni qayta ishlash korxonalarini tashkil etish jarayonini umumlashtiradi.

Jarqo'rg'on tumanida 324 fermer, 1 ming 921 dehqon xo'jaligi, 48 mingdan ortiq tomorqa yer egalari faoliyat yuritadi. Shuningdek, yirik klasterlar ham tashkil etilgan.

Joriy yilda jarqo'rg'onlik mirishkorlar 19,6 million dollar qiymatidagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari, shu jumladan, 7,1 million dollarlik meva-sabzavot eksport qilishni maqsad qilgan. Tumaning eksport rejasida "Oftobqo'rg'on tomorqa xizmati" tomorqachilik klasterining ulushi 2 million dollarni tashkil qiladi.

Klasterimizda asosan, karam, piyoz, sarimsoqpiyoz, qovun-tarvuz va turli mevalar yetishtiramiz, — deydi korxonada rahbari Subhon Muhammadiyev. — Keyin ularni qayta ishlash, eksportga yo'naltiramiz. Bu mavsum 30 gektarda eksport-qovun va tarvuzning yangi navlarini parvarishladik. Ularni saqlash, qayta ishlash va xorij bozoriga sotishda muzlatkich omborxonasi, saralash va qadoqlash xonalari qo'l kelyapti. Checka qishloqda faoliyat yuritayotgan biz kabi mirishkor-

lar bir vaqtlar mahalliy bozorlagagina mahsulot sotgan bo'lsak, bugun eksport geografiasini kengaytirish haqida bosh qotiramiz. Sohani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan e'tibor, yaratib berilayotgan imkoniyatlar zimmamizga mana shunday mas'uliyatli vazifani yuklamogda.

Bugungi kun dehqon fermerlari samaradorlik hosildorlik cho'g'i bilan o'lchadigan davr o'tib ketganini, olinadigan daromad asosiy mezonga aylanganini yaxshi anglab yetgan. Klaster tizimidan ko'zlangan maqsad ham yerdan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligini sanoatlashtirish, chetga xomashyo emas, qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulot sotishni yo'lga qo'yish hisoblanadi.

Mamlakatimizda qulay ishlabirmonlik muhitini yaratish, eksport tartib-taqomillarini tubdan soddalashtirish orqali yetishtirilgan meva-sabzavot va sanoat mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish maqsadida tizimli ishlar amalga oshirilyapti. Mana shu imkoniyatdan unumli foydalanayotgan "Oftobqo'rg'on tomorqa xizmati" MCHJ faoliyati yildan-yilga kengayib borayotir. Asosan, meva-sabzavot eksportiga ixtisoslashgan korxonada tumanida logistika markazi faoliyatini ham yo'lga qo'yimoqda.

Tomorqadan unumli foydalanish oilalar daromadini oshirish barobarida, hududlar iqtisodiyoti rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Bugungi kunda klaster tomonidan tomorqa yer egalari qishloq xo'jaligi bilan do'konlari qurib berilyapti. Dehqonlarga eksport bo'lgan ko'chat va urug' yetkazib berilishi barobarida agrotexnik xizmat ham ko'rsatilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 15-dekabrda "Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ham meva-sabzavot ekinlari yetishtirish, saqlash, qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi, shuningdek, "daladan —

rastagacha" tamoyili asosida qo'shilgan qiymat zanjirini yaratuvchi meva-sabzavotchilik klasterlari (kooperatsiyalar) faoliyatiga ko'maklashish yuzasidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar aniq belgilab berilgan. Bu vazifalar sanoat tarmoqlarining xomashyoga, aholining esa oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirishga xizmat qilishi barobarida, qo'shimcha ish o'rinlari yaratishi bilan ahamiyatli bo'lyapti.

## Bir gektar maydonga 2,5 ming tuggacha ko'chat ekish mumkin

Yoshi ulug'lar bilan suhbatlashsangiz, hosildorlik yuqori bo'lishi uchun serunum tuproq, mo'tadil ob-havo, arilarni to'ldirib oqadigan suv zarurligini ta'kidlashadi. Ammo bugungi kun mirishkorlari zimmasiga har qanday iqlim sharoiti va har qanday yerdan yuqori hosil olish choralarini ko'rishdek vazifa yuqurtirilgan. Davriming o'zi kam xarajat bilan yuqori hosil olishni talab qilmoqda. Buning uddasidan chiqish uchun esa tarmoq rivojiga qaratilgan imkoniyatlardan o'rinni foydalana olish kerak.

Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida qishloq xo'jaligining yillik o'sish sur'atini kamida 5 foizga yetkazish belgilangan. Buning uchun mas'ullar zimmasiga joriy yilda dehqonchilikda o'sish sur'atini o'rtacha 6 foiz oshirish hamda 25 ming gektarda intensiv bog' barpo etib, mevaning o'rtacha hosildorligini 84 sentnerdan 110 sentnerga yetkazish vazifasi yuklandi.

Yerdan unumli foydalanib, yuqori hosil olish imkonini beradigan intensiv bog'dorchilikda an'anaviy bog'lardagiga nisbatan 5-6 barobar ko'p hosil yetishtirish mumkin. Mana shu raqamning o'ziyoq nima uchun intensiv usulda meva-sabzavot yetishtirishga alohida urg'u berilayotganining javobi bo'la oladi. Shuningdek, bu usulda yetishtirilgan

meva-sabzavot mahsulotlari har xil virusli kasalliklarga chidamli, ekinning vegetativ davri qisqa, hosili ko'p va sifatli bo'ladi. Tabiiyki, jahon bozorlarida bunday mahsulotlarga talab ham yuqori. Shu bois, past rentabelli ekin maydonlari bosqichma-bosqich qisqartirilib, o'rinda yangi bog'-rog'lar barpo etish, sabzavot va poliz ekinlari joylashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shofirkon tumanining Do'rmon hududida intensiv bog' barpo etilganiga uch yil bo'ldi. Qisqa vaqtda mirishkorlar ko'zlangan maqsadga yetishish uchun samarali mehnat qildi, zarur agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirdi. O'tgan yilgi dehqonchilik mavsumida 128,4 gektar mevali bog' va qariyb 8 gektar tokzorining har gektaridan 200 sentner oltin meva, aniqrog'i, 2 ming tonnadan ortiq meva, 200 tonna atrofida uzum yetishtirilgan.

200 nafardan ortiq ishchi-mutaxassis faoliyat olib boradigan hududda olma, behi, nok, o'rik, shaftoli, olxo'ri va gilos kabi mevalar yetishtirilmoqda. Fermerlar tomonidan yana deyarli 8 gektarga yaqin maydonda intensiv usulda olma, shaftoli va olxo'rivor tashkil etish ishlari ham boshlab yuborilgan. Tumaning Navbahor mahallasida istiqomat qiluvchi Afzal Qo'shshayev rahbarlik qilayotgan "Jilvon jilosi" fermer xo'jaligi tomonidan 2 gektar yerda ko'chatchilik faoliyati yo'lga qo'yilgan, unda qarag'ay, sadaqayrag'och, akatsiya, gujum, tol, terak kabi manzarali, o'rik, olma, gilos, shaftoli kabi mevali daraxt ko'chatlari parvarishlanmoqda.

— Odatiy usulda bir gektar maydonga ko'pi bilan 400 tuggacha ko'chat qadala, yarim pakana bog'dorchilikda buni 2,5 ming tuggacha yetkazish mumkin, — deydi A.Qo'shshayev. — Bunday daraxtli tanasi kichik bo'lgani uchun ham ularga ishlov berish qulay. Shuningdek, o'simlik tanasiga yorug'lik tushishi, havoy aylanishi yaxshi bo'lganidan daraxtlar erta hosilga kiradi. Hosilni terish ham oson. Ish unumli, mahsulot sifat yuqori bo'ladi. Bu usulda hosil yetishtirish ancha tez. Sohadada uzoq yillardan buyon faoliyat olib boraman. Ilgari bir gektar boqqa 1000 kub metr suv sarflangan bo'lsa, pakana bog'lar uchun tomchilatib sug'orish yo'li bilan atigi 70 kub metr suv yetarli bo'ladi.

## "Yopiq dalalar" — barqaror daromad manbai

Prezidentimizning 2022-yil 2-noyabrda "Isshixona xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, issixona xo'jaliklari va muzlatkichli kameralarning samarali ishlashi uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. Issixona xo'jaliklari va muzlatkichli omborxonalar

uchun ajratilgan kreditlarni qaytarish muddati umumiy hisobda 14 yil etib belgilandi, imtiyozli davri esa 3 yildan 5 yilgacha uzaytirildi.

Hosilning kutilgandek bo'lishi ko'plab omillarga bog'liq. Issixona xo'jaliklari gacha moddiy resurslarni yetkazib berish va yetishtirilgan mahsulotni ulardan xarid qilish choralarini hujjat bilan aniq belgilab qo'yildi. Sertifikatlangan urug' va ko'chatlarni yetishtirish bo'yicha maxsus ko'chatxonalarini tashkil etish ham ko'zda tutildi. Asos sifatli bo'lsagina, bajarilgan

eksportga tayyorlash jarayonining ham o'ziga yarasha talablari bor. Sovitish tizimimiz bor, meva-sabzavotlarni saralab, xorijga chiqarish uchun logistika markazi, shuningdek, ko'chat yetishtirish amaliyoti ham yo'lga qo'yilgan.

Korxonada Turkiya, Yaponiya, Niderlandiyadan keltirilgan hosildor, jahon bozorlarida talab yuqori bo'lgan navlar parvarishlanib, MCHJ issixonalarida ekilmoqda, aholi tomorqalariga ham yetkazib berilmoqda. Ayni kunlarda issixonaning 1 gektar maydonida pomidor ko'chatini ekish avjida.

Mazkur jamiyatning yillik quvvati 5 ming tonna qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishga teng, 6,4 million dollarlik mahsulotni jahon bozorlariga olib chiqishni reja qilgan. Ahamiyatli tomoni, 2021-yilda tashkil etilgan korxonaga qisqa vaqtda katta natijalarga erishib, 18 million dollarlik eksportni amalga oshirdi.

Ekinni yetishtirishda eng zarur omillardan biri — suv. Yirik maydonni egallagan issixonalarini sug'orish uchun to'liq kompyuterlashtirilgan tizim yo'lga qo'yilgan. Tomchilatib sug'orish hisobiga katta miqdorda suv iqtisod qilinadi.

An'anaviy usulda parvarishlangan bir tup pomidor ko'chati o'rta 3-4 kilogramm hosil bersa, gidroponika usulida 12 kilogrammgacha mahsulot olish mumkin. Shuningdek, ko'chat ildizi, tanasi va bargi ham turli zararkundalardan himoyalangan bo'ladi.

Aytish joizki, Suxondaryo viloyatida yetishtirilgan meva-sabzavotlar dunyoning ko'plab mamlakatlariga eksport qilinmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi 5 yilda mahsulotlar MDH mamlakatlari hamda bosqacha yirik bozorlar — Xitoy, Germaniya, Turkiya, Janubiy Koreya, Yaponiya va Boltiqbo'yi davlatlari bozorlariga kirib bordi. Joriy yilning o'tgan olti oyi davomida esa ana shunday bozorlarga 45,8 million dollarlik 50 ming tonna meva-sabzavot eksport qilindi.

Umuman olganda, yurtimiz qishloq xo'jaligi sektorining muhim tarkibiy qismi

agrotexnik tadbirlar, ekinga singgan mehnat o'z samarasini beradi. Yengil konstruksiyali issixonalarining keng miqdorda qurilishi nafaqat mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish, balki aholini qo'shimcha daromad bilan ta'minlashga ham xizmat qilmoqda. Shuningdek, bozorlarni meva-sabzavot bilan barqaror ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Isshixonadan foydalanib, foydali tijorat g'oyasini amalga oshirish mumkin. Chunki mo'ljazzina "yopiq dalalar" barqaror daromad manbaiga aylanib, maqbul sharoitlarda yetishtirilgan yangi, ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari doimo dasturxonada bo'ladi. Aholi xonadonlarida issixonalar tashkil etish orqali ta'minlanayotgan bunday to'kinlik nafaqat ehtiyojimizni qondirish, balki iqtisodiy samaradorlikka olib kelishi bilan ahamiyatli.

Isshixonachilik aholi bandligini ta'minlashning muhim omiliga bo'lib qolmay, qarovsiz yerlarni o'zlashtirish, ulardan unumli foydalanishda ham samarali yondashuv bo'lmoqda. Sherobod tumanida joylashgan "Sherobod agro impek" MCHJga qarashli 29 gektarli issixonada pomidor, bodring, bulg'or qalampiri kabi bozorboq mahsulotlar parvarishlanmoqda. Zamonaviy issixonada yetishtirilgan pomidorlar eksportga yo'naltirilyapti.

— Bizda pomidorning Yaponiyadan keltirilgan navi parvarishlanmoqda, — deydi agronom Keldiyor Rashidov. — 70 kun mobaynida hosil bozorga olib chiqishga tayyor bo'ladi. Ammo juda "injil" nav bo'lganidan alohida parvarish zarur. Hosil kutganimizdek bo'ladi. Mahsulotni



bo'lgan meva-sabzavotchilik bugun chinakamiga ham dehqon, ham fermer xo'jaliklari uchun eng foydali faoliyat turlaridan biriga aylandi. 2017-yilda meva-sabzavot mahsulotlari eksportidan daromad 652,3 million dollarni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 1,13 milliard dollarga yetdi. Bu so'nggi yillarda yurtimizda meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirish, tarmoqqa bozor mexanizmlarini joriy etish, ishlab chiqarish va eksportni kengaytirish, meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash quvvatlarini yaratishga qaratilgan e'tibor samarasidir.

2022-yil yakunlari bo'yicha YIMning qariyb 25 foizi, investitsiyalarning 7, eksportdan olingan foydaning 6 va jami bandlekning 25 foizi qishloq xo'jaligi hissasiga to'g'ri keldi. Bundan anglash mumkin, sohadada meva-sabzavot yetishtirishda insonlar hayotida bo'y ko'rsatishi barobarida, mamlakat iqtisodiyoti rivojiga ham katta hissa qo'shmoqda.

Ayni paytda yurtimiz aholisining meva-sabzavotga bo'lgan o'rtacha yillik ehtiyojining qariyb 96 foizi o'zimizda yetishtirilgan mahsulotlar hisobidan ta'minlanmoqda. Hozirda O'zbekistonimiz o'rik yetishtirish bo'yicha dunyoda 2-o'rinda, sabzi yetishtirish bo'yicha — 3, gilos yetishtirish bo'yicha — 4, bodring yetishtirish bo'yicha — 7, olcha va anjir yetishtirish bo'yicha esa 8-o'rinda turadi. Raqamlar meva-sabzavot yetishtirishda izchil iqtisodiy ishlohotlar amalga oshirilayotgani sohadagi ta'minotni tubdan yaxshilab, o'z natijasini berayotganidan darakdir.

IQTIDORLI YOSHLAR — MAMLAKAT KELAJAGI

# DUNYO O'ZBEKISTONNI YANGIDAN TANIYAPTI

## o'g'il-qizlarimiz xalqaro fan olimpiadalarida ham peshqadam

Boshlanishi 1-betda

Yaqinda BAAda bo'lib o'tgan 34-Xalqaro biologiya olimpiadasi va Yaponiyaning Chibo shahrida o'tkazilgan 64-Xalqaro matematika olimpiadasining har birida yurtimiz terma jamoasi 3 tadan bronza medalni qo'lga kiritdi. Shuningdek, Yaponiya mezbonlik qilgan 53-Xalqaro fizika olimpiadasida ham terma jamoamiz bitta bronza medalga sazovor bo'ldi. Natijalar shu bilan to'xtab qolgan yo'q. O'zbekiston farzandlari salohiyati, iqtidorini dunyo arenalarida munosib namoyish etishda davom etyapti. Natijalar salmog'i va darajasi tobora yuksalib boryapti. Xususan, 16-25-iyul kunlari Shveysariyada qariyb 90 davlatdan 350 nafarga yaqin o'quvchi ishtirok etgan 55-Xalqaro kimyo olimpiadasida vakillarimiz 2 oltin, 1 ta kumush va 1 ta bronza medalini qo'lga kiritgani fikrimiz dalildir.

Zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lishni bugun davrning o'zi taqozo etmoqda. Yurtimizda millat taqdiri, mamlakat kelajagiga bevosita daxldor bo'lgan yoshlar masalasi, ta'lim sohasiga qaratilayotgan e'tibor zamirida ana shu maqsad mujassam. Davlatimiz rahbarining 2019-yil 3-maydagi "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bunga puxta zamin yaratdi. Qarorga muvofiq, xalqaro fan olimpiadalarida oltin medal olgan o'quvchi bazaviy hisoblash miqdorining 500 barobari, ustoz 450 barobari, kumush medal olsa, bazaviy hisoblash miqdorining 300 barobari, ustoz 250 barobari hamda bronza medal uchun bazaviy hisoblash miqdorining 200 barobari, ustoz 150 barobari miqdorida pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

Bunday e'tibor va rag'batdan kuch olgan o'quvchilar nufuzli fan olimpiadalarida faxrli o'rinlarni qo'lga kiritib, yurtimiz dovrug'ini taratayotgani bilan haqli ravishda faxrlansak arziydi.

Abdulloh MAHMUDOVI, 55-Xalqaro kimyo olimpiadasi oltin medal sovrindori: — Bundan oldin boshqa xalqaro olimpiadalarda ham qatnashganman. Bu bellashuv ancha yuqori saviyada o'tdi. Albatta, olimpiadaning eng hayajonli nuqtasi imtihon jarayoni va yopilish marosimi. Oltin medalga sazovor bo'lganimiz e'lon qilingan payt juda quvonchli va unutilmas lahzalardan bo'ldi. Undagi tuyg'uni ifodalash qiyin, faqat jarayonda his qilish mumkin. Singapur, Xitoy, Rossiya, Vyetnam kabi davlatlardan kelgan tengdoshlarimizning bilimi ham aslo kam emasdi. Lekin ayni shu bellashuvda erishilgan muvaffaqiyat bizni il-g'or mamlakatlar o'ntaligiga olib kirdi. Bu ham katta natija. G'alabaniy asosiy omili tayyorgarlik jarayoniga bog'liq. Musobaqaga hozirlik ko'rishimiz uchun barcha shart-sharoit yaratildi. Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabda darsdan tashqari nufuzli xalqaro olimpiadalarga tayyorlovchi guruh birkirildi. Tajribali va bilimli ustozlarimiz deyarli har kuni biz bilan shug'ullandi. Bu jarayon hatto bayram kunlari ham ertalabdan kechgacha davom etardi. Bugun ustozlarimizning mehnati va ulardan olgan bilimimiz samarasini ko'rib turibmiz.

O'zbekiston yoshlar mamlakati sifatida e'tirof etiladi. Bu bejiz emas, albatta. Yurtimizda yoshlarning sifatli ta'lim-tarbiya olishi uchun munosib sharoit yaratish, huquq va manfaatlarini himoya qilish, iste'dodini qo'llab-quvvatlash, bandligini ta'minlash yo'lida qilinayotgan sa'y-harakatlar ko'lami kundan-kunga ortib, yangi tashabbuslar qanot yoymoqda.

## INTILISHGA MUNOSIB RAG'BAT farzandlarimizda o'ziga va ertasiga ishonchni mustahkamlayapti

Prezidentimiz yaqinda Farg'ona viloyatiga tashrifi chog'ida Bag'dod tumani Xitoy mahallasidagi 5 nafar iqtidorli yoshga oliy ta'lim muassasalarida o'qishni davom ettirishi uchun tavsiya bergani yosh avlodga qaratilgan yuksak e'tiborning yorqin tasdiqi bo'ldi. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri ibrohim Abdurahmonov hamda tegishli oliy ta'lim muassasalari rektorlari mazkur mahallada bo'lib, yoshlarga davlatimiz rahbarining tavsiyasi asosida davlat granti asosida o'qishga qabul qilingani haqidagi sertifikatlarni topshirdi. Prezidentimizning chekka qishloq yoshlarini qo'llab-quvvatlovi mahalla aholini, ustoz-murabbiylar hamda ota-onalarni behad mamnun etdi. Davlatimiz rahbari tavsiyasiga binoan o'qishga qabul qilingan yoshlar bilan suhbatlashib, quvonchiga sherik bo'ldik.

### Diyora TURG'UNBOYEVA, Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti:

— Hayajonimni so'z bilan ifodalab bera olmayman. Bu kun nafaqat men, balki hamqishloqlarim uchun esda qolarli taassurotlarga boy bo'ldi. Prezidentimiz bilan uchrashuvda Qo'qon davlat pedagogika institutining boshlang'ich ta'lim fakultetini grant asosida a'lo baholarga tamomlab, hujjatimni Toshkent davlat pedagogika universitetining magistratura bosqichida o'qish uchun topshirganimni, ingliz tilini bilish darajasi bo'yicha 6,5 ballik maxsus sertifikatni qo'lga kiritganimni aytdim. Davlatimiz rahbari so'zlarimni tinglay turib, "Siz mening tavsiyam asosida magistraturada o'qiydiz", deganini eshitgancha, qalbm behiyo quvonchga to'ldi. Bu men uchun katta sharaf, mas'uliyat. Endi har qachongidan ham ko'p o'qib, o'rganib, qishlog'imiz yoshlariga puxta bilim berish va menga bildirilgan yuksak ishonchni oqlashga harakat qilaman.



### Omadbek TURG'UNBOYEV, Toshkent davlat stomatologiya instituti talabasi:

— Tarixiy uchrashuv oilamizga kutilmagan shodlik, xushxabar olib keldi. Bir vaqtning o'zida opam va men Prezidentimiz tavsiyasiga binoan o'zimiz istagan oliy ta'lim muassasasida o'qish imkoniyatiga ega bo'ldik. Yoshligimdan tibbiyot sohasiga qiziqqanman. Kimyo fanidan maxsus sertifikatga egaman. Qishlog'imizdagi 22-maktabni oltin medal bilan tamomlab, Toshkent davlat stomatologiya institutiga o'qishga kirish uchun test imtihonlariga tayyorgarlik ko'rayotgandim. Prezidentimiz bilan samimiy muloqot bu yo'lidagi orzu-maqсадimning erta qanot yoyishiga katta imkoniyat berdi.



Otam tadbirkor, onam qishlog'imizdagi maktabda rus tili va adabiyotidan dars beradi. Ularning xursandligini aytmasizmi! Farzandining baxtu kamolini ko'rish har bir ota-onaning eng katta orzusi. Bu niyatlar ro'yobida Prezidentimiz qo'llab-quvvatlagani biz uchun ham sharafli, ham mas'uliyatli bo'ldi.

### Oygul SAMINJONOVA, Toshkent davlat moliya instituti talabasi:

— Bolaligimdan o'qishga juda qiziqqanman. 1-sinfga qadam qo'yganimga alifbosi, harflardan so'zlar tuzishni, o'zbekchadan tashqari ingliz va rus tillarida ham bir oz gapirishni bilardim. Albatta, bularning hammasida oilam, yaqinlarimning e'tibori, hisssasi katta. Bu yil maktabni oltin medal bilan tamomladim. Umumta'lim muassasasida o'qish jarayonida Andijon viloyatidagi xalqaro Sharda universitetiga 8 million 700 ming so'mlik vaucher yutdim. Yaqinda IELTSdan 6,5 ballni qo'lga kiritdim. Prezidentimiz "Xitoy" mahalla fuqarolar yig'iniga kelgan kuni bobomning holdan xabar oldim. Mahalla ahli, yoshlar bilan suhbat chog'ida yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi imtiyoz va imkoniyatlar, ayniqsa, oliy ta'lim istagidagilarga yaratilgan sharoitlar haqida gapirdim. Moliya sohasiga qiziqishim, shu tizimda ishlash niyatim borligini bildirdim. Prezidentimiz maqsadimni qo'llab-quvvatlab, Toshkent moliya institutiga davlat granti asosida o'qish uchun tavsiya berdi. Bu hayotimdagi unutilmas yaxshilik sifatida xotiramda muhrlanib qoldi. Davlatimiz rahbarining qishlog'imizga kelib ketganiga bir necha kun bo'lgan esa-da, bizni tabriklab, yo'qlab kelayotgan tengdoshlarim, ustozlar, ota-onalarning oyog'i uzilgani yo'q. Hamma bizga havas bilan qarayapti, farzandlariga ham mana shunday kunlar nasib etishini Yaratgandan so'rayapti.



### Hojjahror G'YOSIDDINOV, Farg'ona davlat universiteti magistranti:

— Prezidentimiz bilan uchrashuvda tarix yo'nalishi bo'yicha magistratura bosqichida o'qib, mamlakatimizning boy tarixini o'rganishni maqsad qilganimni aytdim. Davlatimiz rahbari fikrimni ma'qullab, Farg'ona davlat universitetining magistratura bosqichida imtiyozli asosida o'qish uchun tavsiya berdi. Soha mutasaddilari kelib, bizga tavsiya asosida o'qishga kirganimiz haqidagi sertifikatni taqdim etganida bildirilgan ishonchdan ko'nglim faxrga to'ldi. Mamlakatimizda yoshlarning bilim olishi, kasb-hunar egallashi uchun imkoniyat yetarli. Maktabni tamomlab, Bag'dod iqtisodiyot kasb-hunar kolleji qo'ldim. Qo'qon pedagogika institutining tarix fakultetini tamomladim. Polshadagi Varshava biznes universitetida tahsil olib keldim. Yaratilgan imkoniyatlar sabab har sohada dadil qadam tashlayapmiz. Qiyinchiliklardan cho'chimay, orzumiz tomon dadil intilyapmiz. Oldimizga aniq maqsad qo'yish, ya'ni havas qilingan marrani egallash uchun barcha sharoit bor. Mana shu imkoniyatlardan foydalanib, mutaxassisligim bo'yicha kerakli bilimlarni chuqur o'rganaman va, albatta, Prezidentimizga bergan va'damning ustidan chiqqan.



### Azizbek NAZAROV, 55-Xalqaro kimyo olimpiadasi oltin medal sovrindori:



— Shveysariyada o'tkazilgan 55-Xalqaro kimyo olimpiadasida oltin medalni qo'lga kiritish o'z-o'zidan bo'lmadi. Bu bellashuvda ikki yilga yaqin vaqt davomida tayyorgarlik ko'rdik. Ustozlarimizning mehnati alohida e'tirofga munosib. Olimpiadaga tayyorgarlik paytida maktab darsliklaridan tashqari universitet fan dasturiga oid bilimlarni o'rganishga harakat qildik. Xalqaro darajadagi turli mavzularni o'zlashtirdik. Xullas, ikki yil nazariy va amaliy jihatdan kuchli tayyorlandik. Astoydil qilingan sa'y-harakat zoye ketmadi. Bugun natijani ko'rib turibmiz. Olimpiadada butunlay o'zga muhitga tushib qolgandek bo'ldik. Birinchi turda berilgan 10 ta masalaning murakkablik darajasi ancha yuqori edi. Buning uchun 5 soat bir oz kamlik qiladi. Lekin biz vaqtdan unumli foydalangan holda nazariy bosqichni muvaffaqiyatli yakunladik. Laboratoriyada uchta qismdan iborat

katta masala berildi. Laboratoriya ishi bir oz vaqt o'ladi. Shunday bo'lsa-da, tezlik bilan masalalarni yechishga harakat qildik va bu bosqichni ham yaxshi uddaladik. Olimpiadaga 90 ga yaqin davlatdan saralangan, eng kuchli o'quvchilar kelgani bizni bir oz hayajonga soldi. Lekin xalqimizning ishonchi va umidi zimmamizdagi mas'uliyatni oshirdi. Aslida, xalqaro darajadagi masalalarni ko'p yechganmiz. Shu bois, hayajonni bemaol yenga oldik. Shunday qilib nazariy bosqichni ham, laboratoriya bosqichini ham muvaffaqiyatli uddaladik.

Men uchun xalqaro olimpiadada ishtirok etishning o'zi katta gap edi. Nafaqat ishtirok etish, balki unda oltin medalga sazovor bo'lish insonga o'zgacha hissiyot berarkan. Ayniqsa, ism-familiyam, davlatimiz nomi e'lon qilinganida qanchalik g'urur tuyganimni so'z bilan ifodalay olmayman. Kelgusida tibbiyot yo'nalishida o'qishni rejalashtiryapman. Sohaga yangilik kiritish, rivojlantirish niyatim bor.

### Abdulloh MAHMUDOVI, 55-Xalqaro kimyo olimpiadasi oltin medal sovrindori:



— Bundan oldin boshqa xalqaro olimpiadalarda ham qatnashganman. Bu bellashuv ancha yuqori saviyada o'tdi. Albatta, olimpiadaning eng hayajonli nuqtasi imtihon jarayoni va yopilish marosimi. Oltin medalga sazovor bo'lganimiz e'lon qilingan payt juda quvonchli va unutilmas lahzalardan bo'ldi. Undagi tuyg'uni ifodalash qiyin, faqat jarayonda his qilish mumkin. Singapur, Xitoy, Rossiya, Vyetnam kabi davlatlardan kelgan tengdoshlarimizning bilimi ham aslo kam emasdi. Lekin ayni shu bellashuvda erishilgan muvaffaqiyat bizni il-g'or mamlakatlar o'ntaligiga olib kirdi. Bu ham katta natija. G'alabaniy asosiy omili tayyorgarlik jarayoniga bog'liq. Musobaqaga hozirlik ko'rishimiz uchun barcha shart-sharoit yaratildi. Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabda darsdan tashqari nufuzli xalqaro olimpiadalarga tayyorlovchi guruh birkirildi. Tajribali va bilimli ustozlarimiz deyarli har kuni biz bilan shug'ullandi. Bu jarayon hatto bayram kunlari ham ertalabdan kechgacha davom etardi. Bugun ustozlarimizning mehnati va ulardan olgan bilimimiz samarasini ko'rib turibmiz.

### Javohir SULTONOV, 53-Xalqaro fizika olimpiadasi bronza medal sovrindori:



— Shu yilning 10-17-iyul kunlari Yaponiyaning Tokio shahrida 91 mamlakatdan 400 nafardan ortiq o'quvchi ishtirok etgan 53-Xalqaro fizika olimpiadasida bronza medalni qo'lga kiritdim. Tanlovda kuchlilar saralandi. Birinchi topshiriq oson bo'lsa-da, amaliy mashg'ulot ancha murakkab edi. Ammo imkon darajasida buni uddaladim. Ota-onamning umidlarini ro'yogga chiqardim. Men tahsil olgan Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabda fizika fani chuqur o'qitiladi. Aerokosmik texnologiyalar xonasida zamonaviy uskunalar o'rnatilgan. Maktab biosining tom qismida o'rnatilgan teleskopda osmon jismlarini kuzatishimiz mumkin. Robototexnika, yosh fiziklar, matematiklar, astronom va informatiklar to'garaklarida o'rgangan bilimlarimiz bugun nufuzli olimpiadalarida muvaffaqiyat qozonishimizga sabab bo'lmoqda. Bu esa biz, yoshlar uchun yaratilgan imkoniyat, mamlakatimizda ta'limga berilayotgan e'tiborning mahsulidir.

### Anvarbek RAHMATOV, 64-Xalqaro matematika olimpiadasi bronza medal sovrindori:



— Bugungacha turli xalqaro va respublika olimpiadalarida sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritganman. Jumladan, 2019-yili JARda o'tkazilgan olimpiadada oltin va bronza medalni, Ozarbayjonda bo'lib o'tgan olimpiadada kumush, 2023-yili masofaviy tarzda o'tkazilgan 19-Xalqaro Jautikov olimpiadasida kumush medalni qo'lga kiritdim. 5-13-iyul kunlari Yaponiyaning Chibo shahrida dunyoning 112 mamlakatidan 623 nafar maktab o'quvchisi ishtirok etgan 64-Xalqaro matematika olimpiadasida bronza medalga sazovor bo'ldim.

Buxoroning Qorako'l tumanidagi mashhur xalqaro matematika maktabida tahsil olganman. Erishgan natijalarimda ustozlarimning hissasi katta. Avvalo, Prezidentimizning yoshlarga qaratayotgan e'tibori, ixtisoslashtirilgan maktablar barpo etilgani va ta'lim muassasalarida yaratilgan imkoniyatlar mana shunday natijalarga erishishimizda muhim omil bo'lmoqda.

### MEN OLIMPIADALARDA ERISHAYOTGAN NATIJALARIMIZNI MAMLAKATIMIZDA TA'LIM SOHASIGA QARATILGAN E'TIBORNING SAMARASI, DEB BILAMAN. ANA SHU E'TIBORGA JAVOBAN YURTIMIZ RAVNAQIGA MUNOSIB HISSA QO'SHISH, SHU YO'lda TINMAY O'QISH, IZLANISH OLIV MAQSADIM BO'LIB QOLADI.

### Shahzoda HAKIMOVA, 55-Xalqaro kimyo olimpiadasi kumush medal sovrindori:



— Olimpiada juda hayajonli o'tdi. Aslida, masalalar uncha qiyin emasdi. Ammo vaqt kamlik qildi. Shunga qaramay, bellashuvda muvaffaqiyatli ishtirok etdik. Bunga imkoniyat yaratgan Prezidentimizdan, ustozlarimdan, meni doim qo'llab-quvvatlab turgan ota-onamdan minnatdorman. Men tahsil olgan Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabda kimyo fani chuqur o'qitiladi. Ustozlarimiz kimyoning nechog'liq jozibador fan ekanini mahorat bilan o'rgatadi. Maktabimizda zamonaviy laboratoriya ishlari o'tkazish uchun yetarli sharoit yaratilgan. Men olimpiadalarda erishayotgan natijalarimizni mamlakatimizda ta'lim sohasiga qaratilgan e'tiborning samarasi, deb bilaman. Ana shu e'tiborga javoban yurtimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shish, shu yo'lda tinmay o'qish, izlanish oliy maqsadim bo'lib qoladi.

### Muhammadibrohim EGAMBERDIYEV, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti akademik litseyining 2-kurs o'quvchisi, 34-Xalqaro biologiya olimpiadasi bronza medal sovrindori:



— Olimpiadaga tayyorlanish jarayonida xorijiy va mahalliy trenerlar bilan ish olib bordik. Jahon standartiga mos keladigan, olimpiada darajasidagi bilimlarni egallashga harakat qildik. Mashg'ulotlar Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabda olib borildi. Bilim olish uchun aslida o'quvchidan hech qanday moddiy mablag' talab qilinmaydi. Yurtimizda ilm olaman, degan har bir yigit-qiz uchun zarur shart-sharoit yaratilgan. Bilimi bor o'quvchi eng chekka qishloqdan bo'lsa ham davlatimiz yaratgan imkoniyatlardan foydalanib, iqtidorini namoyon etishi mumkin. 34-Xalqaro biologiya olimpiadasi Birlashgan Arab Amirliklarida bo'lib o'tdi. Xarajatimiz davlat tomonidan 100 foiz qoplandi. Bu bizga berilgan juda yuqori ishonchdan dalolat edi. Biz O'zbekiston sharafini himoya qildik va terma

jamoamiz 3 ta bronza medalni qo'lga kiritdi. Xalqaro olimpiadada bronza medalni qo'lga kiritgan o'quvchi hamda ustoz pul mukofoti bilan taqdirlanadi. Bu e'tibor va rag'bat haqida so'zlab berganimda xorijlik tengdoshlarim hayrat va havas bilan qarashdi. Zimmamizda mana shu e'tiborga munosib bo'lish mas'uliyati turibdi. Zotan, Prezidentimiz Uchinchi Rennessans poydevorini barpo etishda bizga ishonmoqda. Biz bu ishonchni oqlaymiz, albatta. Hozir kuchli jarrohlik amaliyoti talab qilinib, Germaniya, Hindiston kabi chet davlatlarga borish kerak, degan gapni ko'p eshitamiz. Kelajakda kuchli jarroh bo'lish niyatim bor. O'zbekistonda jahon andozalari darajasidagi klinika ochish niyatidaman. Yetuk shifokor bo'lib, mamlakatimiz tibbiyotini rivojlantirish, bu yo'nalishda Nobel mukofotini qo'lga kiritish — eng katta orzu. Bu yo'lda o'qish, izlanishdan aslo chekinmayman.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Risolat MADIYEVA yozib oldi.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Rasuljon KAMOLOV tayyorladi.

TUTASH TOMIRLAR



Yangiboy QO'CHQOROV, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

Prezidentimiz Qoraqalpog'iston diyorida bo'lganida doimo tarixi, taqdiri, tili, dini, dostonlari tutash tomirlarga ega o'zbeklar va qoraqalpoqlar abadiy do'stlik so'qmoqlari osha bir xalqqa aylangan ketganini, ayniqsa, bu olmos qirralar tengsiz ma'naviy boyligimiz hisoblangan dostonchilik san'atida yarqirab ko'zga tashlanayotganini alohida ta'kidlaydi. Davlatimiz rahbarining bulbulzabon baxshilar maskani Termizdan keyin Qoraqalpog'istonda o'tgan 2-Xalqaro baxshichilik festivali ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida quyidagi satrlar bor:

"Qoraqalpog'iston deganda, avvalo, mardlarga vatan bo'lgan, mehnatkash va oiljanob el yashaydigan betakror diyori ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Bu zamindagi Tuproqal'a, Ayozaqal'a, Katta Guldursunqal'a, Ellikqal'a kabi noyob obidatlar qadimiy sivilizatsiya va madaniyat tarixiy idizlaridan dalolat beradi. Ularni bir bora ko'rgan, bepoyon kengliklarda baxshi va jirovlaridan doston va termalar tinglagan inson bu diyorga umrbod maftun bo'lib qoladi."

Bu ayni haqiqat. Zero, qoraqalpoqlar Yevrosiyo zaminining qaysi kengliklari — xoh u Edil-u Yoyiq, xoh Jayhun-u Sayhun, xoh Dashti Qipchoq, xoh Turon-u Turkiston hududida umrguzaronlik qilmasin, dutor bilan qo'bizni qo'ldan qo'ymadilar. Bundan yetti asr muqaddam So'pposi Sipira jirov dostonlarini hatto Oltin O'rda hukmdorlari ham sehirlihan tinglagan. Qoraqalpoqlarning XVIII asrdagi Turkistondagi taqdirini buyuk Jiyon jirov "Po'sqon el" dostonida bag'ri biron bo'lib kuyilgan. Bu mard xalqning Orol va Amu sohillariga ko'chgan paytidagi jasorati Kunxo'ja, Ajiniyoz, Berdaq, O'tesh, Umar, Ayapbergan, Abboz, Sodiq shoirlar bitgan yozma dostonlarda o'z ifodasini topdi.

Ayni chog'da qoraqalpoq folklori butun turkiy xalqlar og'zaki ijodida keng e'tirof etilgan javohirlar ummonidir. Bu nafis so'z ummoni yana bir ulkan quyma so'z dengizi — o'zbek xalq dostonchiligidan quvvat oladi. Zero, o'zbek xalq dostonlarining umumiy soni 200 dan oshadi.

"Alpomish" (biz o'zbeklarda "Alpomish", qozoqlarda "Alpomish batir", oltoylarda "Alip-Manash", boshqirdlarda "Alpamisha i Barsin-Xiluu" qozon tatarlarida "Alpamsha") "Qiriz qiz", "Maspatsha", "Yedige", "Qoblan", "Shariyar", "Gorogli" kabi qirqdan ortiq

# Dostonlarda BIRDAMLASHGAN YURT

qahramonlik eposi, ishqiy-romantik dostonlari qoraqalpoq folklorining noyob javohirlaridir. O'zbekistonda Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'lkani shoir, Ergash Jumanbulbul o'g'lidan tortib, o'ttizdan ortiq mashhur baxshi "Alpomish"ni kuyilgan. Bu buyuk dostonning qirqdan ko'proq muqobil matni bor. Dostonning bosh g'oyasi yurt daxlizligi, insonning insonga mehru muhabbati, yovlarga qarshi nafrat tuyg'ularidan iborat. Bu hissiyotlar Alpomish, Barchin, Qaldirg'och, Qorajon, Boybo'ri, Boysari, Qultoy, Yodgor, Ultontoz obrazlari orqali ifodalanadi. Qoraqalpoqlarning qo'biz bilan ayliguvchi "Alpomish" dostonida esa Alpomish, Gulbarchin, Jontiles, Oltinsoch, Jadiger, Qultoy, Toychixon obrazlari bor. Shuni ta'kidlash kerakki, yaqinda bosmadan chiqqan "Qoraqalpoq folklori"ning yuz jildligiga shu dostonning sakkiz varianti kiritildi. 7 ming satrdan iborat birinchi variantni chimboylik O'g'uz jirov, ya'ni Xo'jambergan Niyozovdan atoqli adabiyotshunos Qali Ayimbetov yozib olgan. Dostonning ikkinchi variantini qo'ng'iroqlik Yesemurat jirov Nurabulloyevdan kegeyliik Rambergan Xo'jamberganov yozib olgan. 15 ming satrdan iborat uchinchi variantni to'rtko'lik Qurbonboy jirov Tojiboyevdan shoir va olim Ortiq Karimov yozib olgan. 11 ming satrli to'rtinchi variantni chimboylik Qiyos jirov Qayratdinovdan yana o'sha Ortiq Karimov yozib olgan. Dostonning beshinchi variantini xalqobodlik Karam jirov Nag'iyomovdan Abdug'ani Jamolov, Nasridin Kamolov, Qolboy Mambetnazarov, oltinchi variantini qangliko'lik Arzimbet jirovdan professor Qobul Maqsetov, yettinchi variantini erkandaryolik Tangribergan jirov To'reniyozovdan Abdug'ani Jamolov, sakkizinchi variantini bundan 120-yil muqaddam to'rtko'lik Jiyemurat jirov Bekmuhammedovdan Abubakir Ahmadjon o'g'li Divayev yozib olgan. Dostonni birinchi bo'lib A.Divayev Turkiston general-gubernatorligi bosmaxonasida chop ettirgan.

Bugungi kunda dostonni chimboylik Qoraqalpog'iston xalq jirovi Baqbergan Sirimbetov maromiga yetkazib kuyilmoqda. U bu aytimni otasi, O'zbekiston xalq hozifi Jiqsiliq Sirimbetovdan, Jaqsiliq o'g'aning o'zi esa Qiyos jirov Qayratdinovdan o'rgangan. Dostonning so'zlari o'ta xalqchil:

Mol yoyganim Boysun ko'lin yoqasi, So'zni tinglar yigitlarning donosi. Kelbatigiz ko'rsam sherning o'zisi, Siz bo'lursiz qaysi elning bolasi?

Yoki:

Xondan kelgan xon og'a, Biydan kelgan bek og'a. To'ng'ichingiz qaynog'a, Kichingiz to'q og'a. O'ranchangiz tengdoshim, Uvol qilma ko'z yoshim!

**“ESHVOY BAXSHI BIRGINA “GO'RO'G'LI” TURKUMIDAN 16 DOSTONNI YOD BILGAN. U YARATGAN KUYLAR ASOSIDA “URGANJ ESHVOYI”, “KURD ESHVOYI”, “FARG'ONA ESHVOYI” KABI TARONALAR BOR. ERNAFAS BAXSHI, USMON BAXSHI, JUMANAZAR BAXSHI, BEKJON BAXSHI, ERNAZAR BAXSHI, MATNAZAR BAXSHI, MAHMUD BAXSHIDEK YUZLAB BAXSHILAR XORAZM DOSTONCHILIGINI YUKSAK POG'ONALARGA KO'TARGAN.**



"Qirg'iz" dostoni qoraqalpoq xalqining tengsiz ma'naviy xazinasi. "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Oshiq G'arib" va boshqa qator dostonlardan farqli o'laroq, bu doston faqat qoraqalpoq xalq og'zaki ijodiga mansubdir. Qoraqalpoq diyoriga mehru qo'yg'an ulkan shoir Mirtemir 1956-yilda Uyg'un domla bilan birga "Qirg'iz" dostonini mahorat bilan ona tilimizga o'girdi. Bu o'rinda shu kunlarda talvudining 100-yilligi keng nishonlanayotgan atoqli adib va davlat arbobi Sarvar Azimovni esga olmaslik mumkin emas. Aynan u Yozuvchilar uyushmasi raisi bo'lganida qoraqalpoq adabiyoti targ'ibotiga alohida e'tibor berdi. Birinchi bor rais bo'lganida uning toshpirligi bilan bir necha qoraqalpoq dostoni o'zbek tiliga tarjima qilindi. "Qoraqalpoq she'riyati antropologiyasi" chop etildi. Aynan uning tavsiyasi bilan buyuk qoraqalpoq dostonchisi Qurbonboy jirov Tojiboyevdan 10 dan ortiq doston yozib olindi. Ular orasida "Er Qo'soy", "Er Zevar", "Er Sayin", "Shirin va Shakar", "Menglixol", "Bo'zigit", "Qonshoyim", "Boltakay botir", "Jonodil" va boshqa ajoyib dostonlar bor edi. Shaxsan shu insonning tavsiyasi bilan yosh olim Qobul Maqsetov Qurbonboy jirovdan "Qirg'iz" dostonini yozib oladi. Taniqli tarjimon Arseniy Tarkovskiy dostonni rus tiliga o'girdi. Qurbonboy jirov 1956-yili Jahon yoshlari musiqa festivalida ishtirok etadi. Festivalga buyuk baxshi bilan birga yoshgina bola — Otajon Xudoysukurov ham borib, taburetka ustida turib ilk qo'shig'ini aytadi. Qurbonboy jirovdan jami 17 ta doston yozib olingan. "Qirg'iz" dostoni syujeti hozirgi Beruniy tumanining Sarko'p qal'asi bilan bog'liq.

Abdullayev) 20 ta Xorazm xalq dostonini yod bilgan. Otam Bozorboy Qo'chqorov ilg'or paxtachilik brigadasi boshlig'i bo'lishiga qaramay, "Boziron" turkumidan 4 dostonni yod aytar edi. Xorazm dostonchiligining eng buyuk vakili Oshiq Oydin "Ximondali", "Oshiq Najab", "Oshiq Albani", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Yusuf va Ahmad", "Hurliqo va Hamro" kabi dostonlari bulbul bo'lib kuyilgan. Oshiq Oydin yashagan manzilda 1991-yili xalqaro baxshichilik bellashuvi bo'lib, unda 92 yoshli Bola baxshi farzandlari Norbek, Matyoqub, Yetmishboy bilan "Ximondali" dostonini kuyilganiga o'zim guvoh bo'lganman. "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonini ovruvoplik atoqli sayohat, olim Vamberi qo'ng'iroqlik Mulla Is'hoq ko'magida yozib olgan. Xorazm baxshichilik maktabida Rizo baxshi, Suyov baxshi, Erniyoz baxshi, Eshvoy baxshi xalq orasida juda mashhur bo'lgan:

Eshvoy baxshi ovozal, Qilba yonda darvozali, Palovlari ko'p mazali, Kuyla, Eshvoy, tilaringdan.

Naql qilishlaricha, xon Eshvoyni tadbirga chaqirganida Qo'shko'pirdagi bir kambag'alning to'yida ushlab qoladi. G'azablangan xon uni Ko'minor (Kaltaminor) dostoni tashlashni buyuradi. Eshvoyning oltin ovozi soni butun Xiva ahli Ko'minor atrofiga o'z ko'rpato'shaklarini yoyib chiqadi:

Baxshidan aylansin Xiva qal'asi, Tagiga to'shaldi gilam, palosi, degan satrlar bejiz to'qilgan emas. Eshvoy baxshi birgina "Go'ro'g'li" turkumidan 16 dostonni yod bilgan. U yaratgan kuyilar asosida "Urganj Eshvoyi", "Kurd Eshvoyi", "Farg'ona Eshvoyi" kabi taronalar bor. Ernafas baxshi, Usmon baxshi, Jumanazar baxshi, Bekjon baxshi, Ernazar baxshi, Matnazar baxshi, Mahmud baxshidek yuzlab baxshilar Xorazm dostonchiligini yuksak pog'onalarga ko'targan.

Qoraqalpoq jirovlaridan Shanqay, Jiye-murat, Nurabulla, Yerro'lat, Yesemurat, Qurbonboy, O'g'uz, Qiyosni tilga oldik. "Edige'y" dostonini Yesemurat va Qiyos jirovdan keyin O'zbekiston xalq baxshisi Jumaboy Bozorov qoyilmaqom tarzda kuyildi. "Sho'blon" dostonini nukuslik telpakdo'z jirov Shomurat Bekmuratov jiro etdi. "Masposhdo" dostoni ijrosida Qiyos jirov Qayratdinov peshqadam bo'ldi. Ammo qoraqalpoq xalq dostonlarini jiro etuvchi baxshilar maktabi ham bor, ulardan G'aribniyoz, Aqimbet, Musa, Juman, Eshvoy, Boyniyoz, Eshchon, Qorajon, Ahmad, Oltiboy, Namozboy (ikkalasi turkman tilida kuyilgan), Japaq baxshilarning dovrug'i yetti qilmiga taralgan.

Buyuk shoir Berdaq va uning qizi Hurliman qoraqalpoq folklorining eng mohir ijrochilari edilar. Musa baxshi Turimov, Qiyos baxshi Qayratdinov, Japaq baxshi Shomuratov, Yesjan baxshi Qo'spo'latov, Kenjaboy baxshi Tleumuratov xalq sevgan baxshilardir.

XIX asrning ikkinchi yarmida quyi Amudaryo hududida Eshvoy baxshi, Suyov baxshi

va Aqimbet baxshi eng mashhur so'z ustalari bo'lgan. Ularning har biri o'nlab ajoyib shogird tayyorlagan. Bu betakror baxshilar ichida Shabboz elining beqiyos farzandi Musa baxshi Turimov (1836-1907) alohida ajralib turadi. U, birinchidan, ulug' Aqimbet baxshining ko'p sonli izdoshlari ichida eng yorqin iste'dodga, xush ovozga, teran musiqa talimiga ega shogirdi edi. Ikkinchidan, Musa baxshi Xorazm baxshichilik maktabining otasi hisoblangan Eshvoy baxshi merosidan ham barakali tarzda bahramand bo'lgan. Uchinchidan, u naqat xorazmliklar, toshhovuzliklar, qoraqalpoq'istonliklar, balki Buxoro zaminida ham keng e'tirof etilgan Suyov baxshidan ko'p narsa o'rgangan. Musa baxshi Turimov o'zbek,



qoraqalpoq, turkman tillarida qo'shiqlar, termalar, dostonlarni mohirlilik bilan jiro qilgan. Berdaq Qarg'aboy o'g'li qoraqalpoq yozma adabiyotining asoschisi bo'lish barobarida buyuk baxshi ham edi. Uning avlodlari Qorajon baxshi va Hurliman baxshi qoraqalpoq baxshichilik san'atida o'z o'rinlariga ega. Berdaq ajoyib zamondoshi Musa baxshiga katta she'r bag'ishlagandi. She'rda:

"Ta'rif etsam uni do'stlar, Odamzodning vaqtin xushlar, Qayriladi uchgan qushlar, Sozin eshista Musaning", degan quyma satrlar bor. Taniqli san'atshunos olim Tojigul Adamboeva o'z monografiyasida barcha qoraqalpoq baxshilari qatorida Musa Turimov ijrochilik maktabiga alohida to'xtaladi. Buyuk Berdaqning yuqorida ta'kidlangan she'rini matnini to'liq beradi. Kitobdan Musa baxshining to'ng'ich farzandi Davletyor baxshining surati ham o'r'in olgan. Davletyorning otasi Musa, Musaning otasi Turim, Turimning otasi Do'simqul, Do'simqulning otasi Esimqul edi. Turim og'a Biybozor, Qalan-darxonadan tashqari Sho'raxonning Chibiqi ovulida ham dehqonchilik qilgan. U turmush o'rtog'i Jumabeka bilan Musa, Do'stbergan, Xudoyor ismli farzandlarini tarbiyalagan.

Shabboz va Sho'raxonida "Sariq xotin" deb nom chiqqan Jumabeka aya to'ylarda tiz-zasiga go'dak Musani o'qtazib qo'yib, terma aytar ekan. So'z va sozga muhabbat Musa baxshiga ona suti bilan kirgan edi. U yetti yoshidan boshlab "Yusuf Ahmad", "Zuhra va Toir", "Sayobxon va Hamro", "Hurliqo va Hamro" dostonlarini qulog'iga quyib oladi. 1868-yili o'n to'rt yashar Musa baxshi hayotida unutilmas voqea yuz beradi. U o'z davrining buyuk baxshisi Aqimbetning shogirdiga aylanadi. "Yetti asrim", "Beshparda" degan ajoyib kuy-larini, "Sen yorim" ashulasini yaratadi. Xiva xoni saroyida "Kelar sallona-sallona" degan qo'shiq bilan shuhrat qozonadi. U g'urur bilan "Men so'zim bilan sozimni ikki sohilga ham barobar manzur qilishim kerak!" degan ekan. Keyin Musa baxshi Buxoroyi sharifga borib, xalq musiqasi sir-asrorlarini o'rganadi. Botirlarning mardligini tarannum etgan Beruniy eli azaldan san'at yurtidir. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodi bu yerda juda ommalashgan edi. Keyinchalik Musa baxshining ishini Namozboy baxshi, Oltiboy baxshi, Juman baxshi, Ahmad baxshi, Abdi baxshi davom ettirdi.

O'tgan asrning yigirmanchi yillari oxirida hozirgi Beruniy tumani hududida teatr truppasi tashkil etilib, unga Jumak Abdurahmonov badiiy rahbar bo'lgan. Bir oz keyinroq bu vazifani mashhur san'atkor Xo'janiyoz gormonchi Jumaniyozov o'z zimmasiga oldi. Truppa tarkibida Ollom Bekhonov, Sobir Gadoniyozov, Yusuf Madrahimov, Qadam Qutliyev, Soli G'afurov, Abdulla Seytnazarov, Madiyor Yo'ldoshev, Fayzulla Abdullayev, Yo'ldosh Obdolov, Ibodulla Otashev, Yangiboy Xolmuratov, Oltinoy Sobirova, Yonchikon Qo'chqorova bor edi. O.Sobirova keyinchalik Qoraqalpog'iston xalq artisti, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist bo'ldi.

Ayni kunda Beruniy tumanidagi bolalar musiqa va san'at maktabi butun mintaqada tarixida xalq og'zaki ijodini mohirona jiro etish bilan shuhrat qozongan, bu borada betakror maktab yaratib ketgan Musa baxshi Turimov nomi bilan yuritilmoqda. U yerda an'anaviy ijrochilik, Sharq va G'arb musiqasi nazariyasidan avval o'z baxshichilik va ijrochilik tarixi, shu jumladan, buyuk Musa baxshi merosi chuqur o'rganilmoqda. 1988-yilning 27-martida taniqli baxshi qabriga yodgorlik lavhasi o'rnatildi.

— Yangi O'zbekistonda yangi hayot nafasi, Uchinchi Renessans nishonalari



Yovlar qal'ani egallab, uning hokimi Olloyomi asir oladi. Olloyorning mardlikda yagona qizi Guloyim o'z atrofiga sarko'plik qirg suvori qizni to'plab, dushmanga qashqashlik zarba beradi. Bunda unga xorazmlik botir Arston yaqindan yordam ko'rsatadi. Doston jahon adabiyotida kamdan-kam uchraydigan jasur amazonkalar haqidagi asardir. Men o'sha qal'a yaqinida tug'ilganman. Uni o'z ko'zim bilan ko'rganman. 1964-yili Eski Kot kanali o'zani yaqinida yangi ama qurilishi munosabati bilan qal'a buzib tashlandi. Eski uyimiz qal'a qoldig'idan ellik qadam sharqda joylashgan edi. Hozir Sarko'p ovulimizda yigirmadan ortiq xonadonda Guloyim ismli momalar, Guloyim ismli juvonlar, Guloyim ismli qizlar bor. Arston obrazini haqida gap ketganda 60 dan oshiq Xorazm xalq dostonlarini eslamaslik mumkin emas. Mening bobom Kenja Muhammad o'g'li 25 ta, Bola baxshi (Qurbonazar

Publication information including: "Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DUK; Bosh muharrir: Salim DONIYOROV; Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi; Navbachi muharrir: Bahor Xidirova; Dizayner: Zafar Ro'ziyev; Manzilimiz: 100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy; Topshirildi — 03:15